

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI XORIJIY  
MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA MAMLAKATSHUNOSLIK  
FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Mavzu: Koreya Respublikasi tashqi iqtisodiy munosabatlarining  
rivojlanish xususiyatlari

**Bajardi:** “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti  
va mamlakatshunoslik” yo`nalishi  
bitiruvchi kursi talabasi Yusupova  
Muxlisa Shavkat qizi \_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Uzoq Sharq va Janubiy  
Osiyo mintaqasi iqtisodiyoti va  
mamlakatshunoslik” kafedrasida  
i.f.n.Mirxanova D. \_\_\_\_\_  
(imzo)

## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	3-5
<b>I BOB. Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari</b> .....	6-19
1.1. Tashqi iqtisodiy aloqalar mohiyati va xususiyatlari.....	6-13
1.2. Xalqaro savdo nazariyasining evolyutsiyasi.....	13-19
<b>II BOB. Koreya Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlari va tahlili</b> .....	20-40
2.1. Koreya Respublikasi tashqi savdosining tarkibi va geografiyasi.....	20-29
2.2. Koreya Respublikasining investitsiya faoliyati.....	30-39
<b>III BOB. Koreya va O`zbekiston iqtisodiy aloqalari rivojlanishi yo`nalishlari</b> .....	40-52
3.1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi.....	40-45
3.2. O`zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining asosiy yo`nalishlari.....	45-52
<b>XULOSA</b> .....	53-57
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI</b> .....	57-61

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Globalashuv va mamlakatning jahon xo'jalik munosabatlariga yanada chuqur integratsiyalashib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion taraqqiyot yo'lidan borishi, mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turish uchun muhim qurol bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorlik va jahon mehnat taqsimotida ishtiroki uning tabiiy-iqtisodiy, transport-geografik, madaniy-tarixiy shart-sharoitlari va imkoniyatlari orqali ta'minlab beriladi.

O'zbekiston Respublikasining tahlil etilyotgan davrdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishi ma'lum darajada respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib borishi bilan ham bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi”<sup>1</sup>, deb alohida ta'kidlagan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston. 2009. -31 b.

Shunga ko`ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalarini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini o`rganishimiz muhim.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Jahon iqtisodiyoti globallashev jarayonida tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi muammolarini o`rganish masalalari M.Porter<sup>1</sup>, V.Leontev<sup>2</sup>, E.Xeksher, B.Olin<sup>3</sup>, va boshqa olimlarning asarlarida nazariy va amaliy aksini topgan.

O`zbekistonning jahon xo`jaligiga integratsiyasi masalalari I.I.Iskandarov, A.M.Alimov, G.G.Nazarova kabilarning ishlarida yoritilgan.

Malakaviy ishning manbalari sifatida bo`lib O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy bozor iqtisodiyotigi o`tish milliy modeli bo`yicha Prezident I.A.Karimovning asarlari, milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari, Koreya Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi masalalari bo`yicha milliy va xorijlik olimlarning ishlari, ushbu masalalar bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlari xizmat qildi.

Malakaviy ishni yozish jarayonida iqtisodiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** Koreya Respublikasi tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil etish va baho berishdan iborat.

Ushbu maqsadga bog`liq holda bitiruv malakaviy ishida **quyidagi vazifalar** hal etilgan:

Tashqi iqtisodiy aloqalar mohiyati va xususiyatlarini o`rganib chiqish;

Xalqaro savdo nazariyasining evolyutsiyasini o`rganib chiqish;

---

<sup>1</sup> Портер М. Международная конкуренция. Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993.

<sup>2</sup> Vasiliy Leontev- "Leontev paradoksi"

<sup>3</sup> Теория международной торговли/ классическая теория международной торговли

Koreya Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish va Koreya Respublikasi investitsiyalarining tarkibini aniqlab ularning turli sohalardagi ishtirokini aniqlash;

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishini tahlil qilish;

O`zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining asosiy yo`nalishlarini o`rganib chiqish va tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv-malakaviy ishning ilmiy yangiligi tadqiqot davomida Koreya Respublikasi tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlariga baho berilganligi bilan ifodalanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Ishda umumlashtirilgan xorijiy mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish bo`yicha nazariy qarashlardan oliy ta'lim tizimida «Jahon iqtisodiyoti», «Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti», «Koreya iqtisodiyoti» fanini o`qitishda ma`ruzalar matni sifatida «Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo Mintaqasi iqtisodiyoti va Mamlakatshunoslik» kafedrası ish faoliyatida foydalanish mumkin.

**Malakaviy ishning tuzilishi.** Mazkur ish kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I BOB. Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari**

### **1.1 Tashqi iqtisodiy aloqalar mohiyati va xususiyatlari.**

Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy rivojlanish va aholining o`shishi notekis yuz beradi, bu ham xalqaro ayirboshlashni kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi, ushbu jarayonlar yangi bozorlarni (tovarlar, xizmatlar, mehnat, axborot, moliya va boshqa bozorlarni) rivojlantirishga, hom ashyoni olib kirishga, texnologiya va axborotlarni ayirboshlashga, ilmiy, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, madaniy va boshqa tashqi iqtisodiy aloqalarga imkon yaratadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning subyektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – bir aniq mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimoti, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xil munosabatlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro`yobga chiqarish jarayonidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va fanni ixtisoslashtirish, xo`jalik hayotini baynalminallashtirish jarayonidan obyektiv ravishda kelib chiqadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi alohida olingan mamlakatlarning o`zaro aloqalari va bir-biriga bog`liqligining kuchayishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari turli sohalarida: tashqi savdo, faoliyatning ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniy va sport turlari, mehnat resurslarini olib o`tishda o`rnatiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu barcha turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin: savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko`rsatish), qo`shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ayniqsa keng tarqalgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egadirlar.

Shunday qilib, qiyosiy ustunliklar nazariyasi quyidagi xulosa chiqarish imkonini beradi: xalqaro savdodan olinadigan eng ko'p yutuq qisman (to'liq emas!) ixtisoslashtirish sharoitida yuz beradi, ya'ni milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning obyektiv chegaralari mavjud.

Xeksher-Olinning savdo nazariyasi sifatida mashhur bo'lgan nazariya birinchi o'rinda ishlab chiqarish chiqimlarini emas, balki qanday resurslar ana shu chiqimlarga kirishini qo'yadi, chunki mamlakatlar chiqimlarida ularda ortiqcha mavjud bo'lgan resurslardan foydalanilgan tovarlarni eksport qilishga intiladilar<sup>1</sup>.

Bunda ichki talabni ishlab chiqarilishi uchun resurslar mo'l ko'l bo'lgan mahsulot bilan to'ldirish omiliga muhim rol ajratiladi.

Keyingi vaqtda tashqi savdo yo'nalishini tovarlarning hayotiy sikli nazariyasidan kelib chiqib tushuntiradigan marketologik nazariya paydo bo'ldi.

Ushbu nazariyaga ko'ra har qanday mahsulotning hayot sikli bir necha bosqichdan – joriy etish, o'sish, yetuklik va tushkunlikdan iborat bo'ladi. Lekin bosqichlarning o'zi ichki va tashqi bozorlar bo'yicha notekis navbatlashadi, ayni shu narsa ishlab chiqarishni ichki bozordan tashqi bozorga qayta yo'llash shartlari va vaqtini belgilaydi.

Xalqaro savdo miqyos samarasi bilan ham tushuntiriladi. Nazariy jihatdan olganda u makroiqtisodiy hodisalarga kiritiladi hamda mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha chiqimlari va hajmlari dinamikasini qiyoslashga asoslanadi. Agar ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirganda o'rtacha chiqimlar mahsulot birligiga hisoblaganda qisqarsa miqyos samarasi musbat, ko'rsatilgan ko'rsatkichlar dinamikasi tamoyillari teskari nisbatda bo'lsa manfiy bo'ladi.

Boshqa nazariy qarashlar ham mavjud. Lekin ular orasidan, birinchidan, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida keng tarqalgani, ikkinchidan, makroiqtisodiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari.

tusdaligi ifodalangan va, uchinchidan, eng umumlashgani bilan ajralib turadiganini olamiz.

Shuni ta`kidlash joizki, xalqaro savdo tashqi iqtisodiy faoliyat barcha qolgan shakllari va turlarining boshlang`ich, muvofiqlashtiruvchi va ko`paytiruvchi negizi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning xorijiy sarmoyani jalb etishdek shaklining samaradorligi ham uning darajasiga bog`liqdir. Savdodagi qonun hujjatlari tomonidan belgilangan va boshqa cheklashlar investitsiya jarayonlarida aks etadi.

Ayni vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalar davlatning iqtisodiy tizimiga ta`sir ko`rsatish vositasi bo`lib maydonga chiqadi, u tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi jahon xo`jaligida tashqi iqtisodiy aloqalar davlat milliy daromadini o`stirish xalq xo`jaligi harajatlarini tejash va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillariga aylanadi.

Davlatlar o`rtasidagi hamkorlik tovarlarni odatdagi ayirboshlashdan xizmatlar savdosi, texnik-iqtisodiy vazifalarni birgalikda hal etish, ilmiy va ishlab chiqarish kooperatsiyasini hamda birgalikdagi xo`jalik faoliyatining boshqa shakllarini rivojlantirish, shu jumladan qo`shma korxonalarini barpo etishga qadar kengaymoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar orqali jahon bozorining tovar va xizmatlarga talabi muayyan davlatning ichki bozoriga o`tkazildi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga imkon yaratadi, bu o`z navbatida, sanoat, qishloq xo`jaligi, savdo, moliya muassasalari va xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Mamlakat ichki bozorining rivojlanishi natijasida davlat ichida taklif hajmi talab hajmidan o`sib keta boshladi, bu hol tashqi savdo operatsiyalarining kengayishi, sarmoya qiymatining arzonlashishi va ishlab chiqarish hamda muomala chiqimlarining kamayishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar turi – bitta muayyan belgi, masalan, tovar oqimining yo`nalishi yoki tarkibiy belgi bilan birlashtirilgan aloqalar majmuidir.

Tovar oqimining yo`nalishi bilan bog`langan tasnif belgisi tovar (xizmatlar, ishlar) ning bir mamlakatdan boshqasiga harakatini, ya`ni tovarni mamlakatdan olib chiqilishi yoki tovarning mazkur mamlakatga olib kirilishini belgilaydi. Ushbu belgiga ko`ra tashqi iqtisodiy aloqalar tovarni sotish va olib chiqish bilan bog`liq eksport aloqalariga ham tovarni harid qilish va olib kelish bilan bog`liq import aloqalariga bo`linadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifining tarkibiy belgisi aloqalarning iqtisodiy manfaatlari sohasi va davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi bilan bog`langan guruhni belgilaydi. Tarkibiy belgiga ko`ra tashqi iqtisodiy aloqalar tashqi savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish, investitsiya aloqalariga bolinadi.

Aloqa shakli – mazkur aloqa turining mavjud bo`lishi usuli, biror-bir aniq aloqa mohiyatini tashqi namoyon bo`lishidir. Tashqi iqtisodiy aloqalar shakllariga savdo, barter, turizm, injiniring, franchayzing, lizing va hokazolar kiradi.

Tashqi savdo faoliyati tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlar (intellektual mulk) bilan xalqaro ayirboshlash sohasida tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir. Bunda tovar deganda har qanday harakatlanuvchi mol-mulk (shu jumladan energiyaning barcha turlari) va ko`chmas mulkkka kiritilgan, tashqi savdo faoliyatining predmeti bo`lgan havo, dengiz kemalari va ichki suzish kemalari hamda fazoviy obyektlar tushuniladi. Xalqaro tashishlar to`g`risidagi shartnoma chog`ida foydalaniladigan trnsport vositalari tovar hisoblanadi.

Eksport-tovar, ishlar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan horijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir. Eksport fakti tovar bojxona chegarasini kesib o`tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar taqdim etilgan paytda qayd etiladi. Bojxona hududidan horijga tovarlar olib chiqishsiz ayrim tijorat operatsiyalari tovarlar eksportiga tenglashtiriladi.

Xalqaro savdo hajmi, ya`ni jahon tovar oboroti faqat eksport hajmlarini qo`shish yo`li bilan, odatda FOB yoki franko-kema borti (ing. Free on board) narhlarida AQSH dollarida hisoblab chiqiladi. FOB narhi tashish va sug`urtalash

harajatlarning faqat bir qismini, tovar kema bortiga yetkazib berilgan paytga qadar sotuvchi o'z zimmasiga olishini anglatadi. FOB yetkazib berishning bazis sharti hisoblanib, unga ko'ra sotuvchi tovarni yuklab jo'natish (odatda eksportchi mamlakatida) kema portiga yetkazib berish haqini va eksport bojlarini to'laydi. Yukni kemada joylashtirishga odatda xaridor haq to'laydi. Tovarni tashish, uni sug'urtalash va import bojlarini to'lash bilan bog'liq keyingi harajatlarni ham xaridor to'laydi.

Import- tovar, ishlar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir favqulodda huquqlarni bojxona hududiga qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kelishdir. Import fakti tovar bojxona chegarasini kesib o'tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar olingan paytda qayd etiladi.

Tashqi savdoda xizmatlar savdosi katta o'rin tutadi. Xizmatlar ham tovardir, biroq ko'pincha ashyolashtirilgan shaklga ega emas va tovarlardan bir qator mezonlari bilan farq qiladi.

Har biri eksport yoki import tovari uchun pul massasini olish yoki to'lash bilan yakunlanadigan tovarlarni sotishga doir odatdagi eksport-import bitimlari bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatda tovar ayirboshlash operatsiyalari yokimuqobil kompensatsion savdo ham keng qo'llaniladi. Muqobil savdo tovarlarni sotishga doir operatsiyalarni o'z ichiga olib, bunda eksportchilarning import qiluvchilardan mahsulot bir qismini yoki eksport qilinayotgan tovarlar bir qismini harid qilishga muqobil majburiyatlari ko'zda tutiladi. Xilma-xil bo'lgan muqobil bitimlarni tashkiliy-huquqiy asos yoki kompensatsiya qoidasiga bog'liq holda uch guruhga ajratish mumkin: valyutasiz asosda tovar ayirboshlash bitimlari (barter), pul asosda savdo kompensatsiya bitimlari va sanoat kompensatsiya bitimlari.

Barter bitimlari obyektlari odatda bir turdagi tovarlar, asosan hom ashyoning kelishilgan to'plamlari bo'lib, bu narsa tovarlarni manyovrlashni istisno etadi. Ayni shu sababli barter muqabil savdoda eng kam tarqalgan bitimdir. Muqobil kompensatsion savdoning kattagina qismi pulga asoslangan, eksportchining import

qiluvchi taklif etadigan tovarlarni sotishda ishtirokini ko`zda tutadigan savdo kompensatsion bitimlari egallaydi. Ushbu turdagi barcha bitimlarni bir necha guruhga bo`lish mumkin: “offset” turidagi bitimlar, “svitch” turidagi bitimlar, bo`nak haridlari va hokazo. Savdoning ushbu turi sheriklarning ishlab chiqarish aloqalarini ko`zda tutmaydi. Agar muqobil savdo sanoat hamkorligining bir qismi bo`lsa va bevosita ishlab chiqarish sohasi bilan bog`lansa, u yetkazib berishlarning alohida tasnif guruhini yaratadiki, bu guruh sanoat kompensatsion bitimlari deb nom olgan, masalan, bunyod etiladigan obyektlar uchun yetkazib beriladigan uskunalar haqi uning yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarning muqobil yetkazib berishlari bilan to`lanadi.

Xizmatlar tashqi savdosida ilmiy-texnika tadqiqotlarni natijalari savdosi va mualliflik huquqlari savdosi alohida o`rin tutadi. Ilmiy - texnika bitimlarini ayirboshlashga doir kelishuvlar nafaqat ilmiy, balki tijorat qiymatiga ham ega bo`lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlarining oldi-sotdisi bilan bog`langan. Ilmiy-texnika bitimlari savdosiga doir operatsiyalarda patentlar, litsensiyalar, tovar belgilari, sanoat namunalari shaklida maydonga chiqadigan intellektual mehnat mahsulotlari, shuningdek “nou-xau” tushunchasi bilan birlashtirilgan texnik bitimlar va tajriba ishtirok etadi.

Tashqi savdo aloqalari moliyaviy aloqalar bilan bog`lanadi, zero moliya savdo paydo bo`lishi bilan va savdo hosilasi sifatida paydo bo`ladi. Moliya- pul oqimida, pullarning uzluksiz boradigan oborotida yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir. Boshqacha qilib aytganda, moliya - pul fondlari shakllanishi va ulardan foydalanishda hamda pul mablag`lari aylanmasi paytida yuzaga keladigan pul munosabatlari tizimidir. Moliya 3 ta funksiyani bajaradi:

- fondlarni shakllantirish va naqd pul mablag`larini olish;
- pul fondlari va naqd pul mablag`laridan foydalanish;
- pul fondlari va naqd pul mablag`larini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish.

Xalqaro kreditlash, xalqaro sug`urtalash, xalqaro bank xizmatini ko`rsatish (hisob-kitoblar, depozitlar va boshqa bank operatsiyalari) moliyaviy tashqi iqtisodiy aloqalar shakllari hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va jahon iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishga oid va investitsion tashqi iqtisodiy aloqalarning paydo bo`lishi va chuqurlashishiga olib keladi.

Sarmoyani bir mamlakatdan boshqa mamlakatga olib o`tish avvalo olib chiqayotgan mamlakat ichki iqtisodiy rivojlanishining uning tashqi savdosi o`shishi bilan taqqoslaganda ildam borishi bilan bog`langan. Lekin shu bilan birga tashqi iqtisodiy faoliyat shakli sifatida sarmoyani olib kirish va olib chiqish o`zaro bog`langan va quyidagi holatlar tufayli bir-birini shartlaydi: sarmoyani tovar shaklida olib chiqish mashinalar, uskunalar, ishlab chiqarish uchun butlovchi buyumlarni yetkazib berishni anglatadi; sarmoyani olib chiqish-asosan kreditor mamlakatda tovar xaridor uchun taqdim etiladigan kreditlardir. Agar tashqi savdo hajmlari ko`paysa, demak sarmoyani olib o`tish o`sgan, ya`ni sarmoya eksporti tovarlarni horijga olib chiqishni rag`batlantirish vositasiga aylangan.

Sarmoyani olib chiqishning tadbirkorlik shakli sanoat, qishloq xo`jaligi, savdo va boshqa tarmoqlarda mahalliy sarmoyaning ishtiroki bilan filiallar, sho`ba korxonalar, aralash korxonalarini xorijga olib o`tishni anglatadi. Tadbirkorlik sarmoyasi ikki turda: bevosita investitsiyalar sifatida va portfel investitsiyalari ko`rinishida maydonga chiqadi. Investor tomonidan ular ustidan nazorat ta`minlanadigan xorijiy korxonalariga sarmoya qo`yilmalari bevosita investitsiyalar deb ataladi. Xalqaro valyuta fondining belgilashiga qaraganda, agar xorijiy investorga korxonalar sarmoyasining kamida 10 foizi tegishli bo`lsa, korxonalar faoliyatiga ta`sir ko`rsatish ta`minlanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda ilmiy, texnik, iqtisodiy hamkorlik, ilmiy, madaniy ayirboshlash va sport tadbirlari borgan sari keng tarqalmoqda.

Eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, shuningdek import tovarlarini harid qiladigan va qayta ishlaydigan hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllarini amalga oshiradigan tarmoqlar, birlashmalar,

korxonalar, firmalarning jamuljami mamlakatning tashqi iqtisodiy majmuasini tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy majmua uchta asosiy qismdan tashkil topadi:

- ishlab chiqarish faoliyati eksportga mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek import tovarlari va xizmatlarining iste'molchilari hisoblangan korxonalar;
- tovarlarni xorijdagi iste'molchilarga yetkazib berish, shuningdek xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotning kelib tushishi bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- boshqaruv korxonalini qabul qilish, kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, axborat bilan taminlash va hokazolar vositasida tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan tashkilot va muassasalar.

Tashqi iqtisodiy majmuani rivojlantirishning hozirgi bosqichi faoliyatning ishlab chiqarish va savdo turlarini bevosita, barqaror va uzoq muddatga birlashtirish hamda majmuani dinamik va muvozanatlashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish-tijorat tizimiga aylantirishni nazarda tutadi.

## **1.2. Xalqaro savdo nazariyasining evolyutsiyasi**

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi jahon xo'jaligi rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u resurslarning davlatlar hududi bo'ylab notekis joylashuvi bilan birga, xalqaro mehnat taqsimoti tizimining, ya'ni mamlakatlar va mintaqalar darajasida tovar xo'jaligining vujudga kelishiga ko'maklashdi, bu davlatlararo va mintaqalararo mahsulotlar almashinuvini, ixtisoslashuv hamda chet el tovarlari va xizmatlarini xarid qilishdan manfaatdorlikni keltirib chiqardi.

Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan, uning tashqi iqtisodiy munosabatlari jahonning boshqa mamlakatlari bilan savdo-sotiq qilishni o'zida namoyon etuvchi, tashqi savdoda o'z ifodasini topadi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun tashqi savdo mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarda sotish yoki chet elda yaratilgan mahsulotni xarid qilishdek muhim vazifani hal etadi. Tashqi savdo munosabatlarini muvaffaqiyatli va samarali rivojlantirish davlat uchun xalqaro va

mintaqaviy integratsiyalashuvda, xalqaro kooperatsiya va ixtisoslashuvda hamda boshqa xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etishga turtki bermoqda.

Tovarlar va xizmatlar jahon bozorida, bir tomondan, ularning milliy ishlab chiqarish xarajatlari bilan namoyon etilgan taklifi (sotuvchilar), shuningdek, ikkinchi tomondan, xorijiy talab (xaridorlar) orqali namoyon etilgan ularga bo'lgan ehtiyojlar ko'zga tashlanib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liklik tashqi savdo munosabatlarning mohiyatini tashkil etadi. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar mehnatining natijalari jahon miqyosida belgilangan narx orqali o'z bahosiga, o'z xarajatlariga, qiymatiga, shuningdek ishlab chiqarilgan ne'matning foydaliligiga (iste'mol qiymatiga) ega bo'ladi. Bu bilan ijtimoiy zarur xarajatlarning jahon darajasi shakllanadi. Ehtiyojlar darajasi bilan jahon bo'yicha o'rtacha mehnat sarflari o'rtasidagi nisbat milliy tovarlar va xizmatlarning jahon bozori nuqtai nazaridan raqobatbardosh narxini ta'minlaydi.

Talab va taklif nazariyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u holda, ma'lumki, bozorlarda, shu jumladan jahon bozorlarida qiymat qonuni talab va taklif mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun tashqi iqtisodiy munosabatlar va jahon bozoriga talab va taklif nazariyasining bozor kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatuvchi narx-navo va narxdan tashqari omillar, elastiklik kabi muhim qoidalari to'liq mos keladi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy qonunlar ular mexanizmining asosi sifatida ishtirok etadi. qonunlar tizimi amal qilishining oqibati sifatida qonuniyatlar, alohida qonun talablaridan farqli o'laroq, tashqi iqtisodiy munosabatlarda va ularning mexanizmida yuz berayotgan jarayonlarni to'liqroq hamrab oladi va aks ettiradi.

F.Gubaydullinaning ta'kidlashicha, dastlabki merkantilistik nazariyalar XVI asrdayoq paydo bo'lgan, shuning uchun xalqaro munosabatlarning savdoga oid jihatlari nazariy jihatdan nisbatan chuqur ishlab chiqilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Губайдуллина Ф., Прямые иностранные инвестиции, деятельность ТНК и глобализация, Мировая экономика и международные экономические отношения, 2003, №2

Merkantilistlarning hisoblashicha, mamlakat importni cheklashi (xomashyo importi bundan mustasno) va hammasini o'zi ishlab chiqarishga intilishi, shuningdek valyuta (oltin)ning oqib kelishiga erishgan holda tayyor mahsulotlar eksportini xar tomonlama rag'batlantirishi zarur.

Merkantilistlarning tovar ayirboshlash bitimining bir ishtirokchilari (mazkur holatda eksportchi mamlakatlar) ko'radigan iqtisodiy foyda boshqa ishtirokchilar (importchi mamlakatlar) uchun iqtisodiy ziyon bo'ladi, degan tasavvurini ushbu nazariyaning asosiy kamchiligi, deb hisoblash lozim. Merkantilizmning asosiy afzalligiga ular tomonidan ishlab chiqilgan eksportni hisoblash siyosatini kiritish mumkin, biroq u proteksionizmning faolligi va mamlakat monopolistlarini hisoblash bilan uyg'unlashadi.

Xalqaro savdo nazariyasi rivojlanishiga klassik iqtisodchilar sezilarli ulush qo'shganlar. XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida ingliz iqtisodchisi Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli asarida mutlaq afzallik nazariyasini bayon etdi. Uning fikricha, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etayotgan mamlakatlar eng ko'p foyda oladilar. Biror bir tovar ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega bo'lgan mamlakat ushbu mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va uni boshqa mamlakatga sotishi maqsadga muvofiq. A.Smitning asosiy xizmati shundaki, u tabiiy va orttirilgan afzalliklarning mavjudligi orqali mamlakatlararo savdo oqimlarini tushuntirib berdi.

A.Smitning mutlaq afzallik nazariyasi D.Rikardo tomonidan yanada boyitildi. U o'zining "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi" nomli kitobida nisbiy afzallik nazariyasini yaratdi. U yuqori samarali xo'jalikka ega bo'lmagan mamlakatda ham tashqi savdo qo'shimcha manfaat keltirishini isbotlab berdi. Ushbu nazariyaga muvofiq, alohida olingan mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan kam xarajatlar sarflaydigan mahsulotlarni eksport qilishi ham manfaatli hisoblanadi. Amalda mutlaq xarajatlar boshqa boshqa mamlakatlarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lishi ham mumkin. Nisbiy afzallik nazariyasi mehnatning

qiymat nazariyasiga asoslanadi. Hozirgi kunda nisbiy afzallik muqobil xarajatlar bilan aniqlanadi.

A.Smit va D.Rikardo tomonidan yaratilgan mutlaq va qiyosiy ustunliklar nazariyalari tashqi iqtisodiy aloqalarning klassik yondoshuvlari hisoblanadi. Xarajatlardagi mutlaq va qiyosiy ustunliklar tamoyillari xalqaro almashinuvni rivojlantirishning tabiiy sharoitlariga kiradi va tashqi savdo munosabatlarining bozor mexanizmi bilan ifodalanadi. qiyosiy ustunliklar tamoyili, shuningdek, mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirishning eng maqbul variantlarini tanlash imkonini, ular xo`jalik faoliyatining yanada muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi. Keyinchalik yuqorida ko`rsatilgan klassiklar fikrlari ortiqcha omillar nazariyasida, hozirgi sharoitda esa raqobat jihatdan ustunliklar nazariyasida rivojlantirildi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida xalqaro savdodagi tarkibiy o`zgarishlar natijasida tabiiy afzalliklarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli sezilarli pasaydi. Shved olimi E.Xeksher va daniyalik B.Olin qayta ishlash sanoati mahsulotlari bilan savdo qilish sabablarini izohlab beruvchi nazariyani yaratdilar. Ushbu nazariyaga muvofiq, turli mamlakatlar mehnat, kapital va yer bilan turli darajada ta'minlangan bo`lib, ularga bo`lgan talab bir-biridan farq qiladi.

Masalan, mehnat resurslariga boy bo`lgan mamlakatda kapital etishmovchiligi mavjud bo`lib, mehnat nisbatan arzon bo`ladi, va aksincha, mehnat resurslari kam bo`lib, kapitalga boy bo`lgan mamlakatda kapital nisbatan arzon bo`ladi. Shu sababli birinchi mamlakatning mehnat sig`imi yuqori bo`lgan, ikkinchi mamlakatning kapital sig`imi yuqori bo`lgan mahsulotni eksport qilishi manfaatli hisoblanadi. Xeksher-Olin nazariyasi xalqaro savdoda kuzatiladigan ko`plab qonuniyatlarni aniq izohlab beradi.

Tabiiy sharoitlar yoki ishlab chiqarishning texnologik ustunliklari bilan bog`liq mutlaq ustunliklarga ortiqcha ishlab chiqarish omillarini, demak milliy ishlab chiqaruvchilar uchun arzon yoki boshqa mamlakatlar ulardan foydalana olmaydigan ishlab chiqarish omillarini o`zida mujassam etgan mamlakat ega bo`ladi, shuning uchun ulardan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni tashqi

savdo orqali sotish mamlakat uchun juda foydalidir, bu Xeksher-Olin nazariyasida isbotlangan.

Lekin, Stolper-Samuelson teoremasi shuni ko'rsatib turibdiki, bunday ustunliklar uzoq bo'lmasligi mumkin, chunki vaqt o'tishi bilan bunday omillarga bo'lgan talab ortadi, bu esa uning narxining oshishiga va mamlakat tomonidan eksport ustunligining yo'qotilishiga olib keladi yoki texnologik ustunlik omilidan boshqa mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XX asrning 50-yillarida amerikalik iqtisodchi V.Leontev o'z tadqiqotlarida tashqi savdo nazariyasini yanada rivojlantirdi. Bu model iqtisodiy adabiyotlarda "Leontev paradoksi" nomi bilan mashhur. Xeksher-Olin teoremasiga asoslanib, u urushdan keyin AQSh iqtisodiyoti mehnat sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligini ko'rsatib berdi. Bu esa AQSh iqtisodiyoti to'g'risidagi ilgarigi nazariyaga zid bo'lib, AQSh kapitalga boy mamlakat bo'lganligi tufayli kapital sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashishi lozim edi. Tahlil jarayoniga ikkidan ortiq ishlab chiqarish omillarini, shu jumladan fan-texnika taraqqiyoti va mehnatdagi tafovutlarni (malakali va malakasiz) kiritib, V.Leontev yuqoridagi paradoksni tushuntirib berdi va shu orqali xalqaro savdo nazariyasiga o'z hissasini qo'shdi.

XX asrning 60-yillarida amerikalik iqtisodchi R.Vernon mahsulotning hayot sikli nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada R.Vernon tayyor mahsulotlar xalqaro savdosini ularning hayot bosqichlari orqali tushuntirib berishga harakat qildi. Mazkur nazariyaga ko'ra, mahsulotning hayot sikli 4 ta bosqichni o'z ichiga oladi: joriy etish, o'sish, etilish va pasayish.

Birinchi bosqichda mamlakat (ko'p hollarda rivojlangan mamlakat) ichkarisida paydo bo'lgan ehtiyojga javob sifatida yangi mahsulot yaratiladi.

O'sish bosqichida mahsulotga bo'lgan talab oshadi, uni ishlab chiqarish kengayadi va asta-sekin boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlaydi. Mahsulot satandartlashadi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kurashi kuchayadi va uning eksporti hajmi oshib boradi.

Yetilish bosqichida yirik seriyali ishlab chiqarish ustuvor o`ringga ega bo`ladi, raqobat kurashida narx omili birinchi o`ringa chiqadi va bozorlarning kengayishi hamda texnologiyalarning tarqalishiga qarab mahsulotni yaratgan mamlakat raqobat afzalliklariga ega bo`lmay qoladi. Ishlab chiqarish asta-sekin rivojlanayotgan mamlakatlarga ko`cha boshlaydi, chunki, bu mamlakatlarda arzon ishchi kuchidan standart ishlab chiqarish sharoitida samarali foydalanish mumkin.

Pasayish bosqichiga o`tish darajasiga qarab mahsulotga bo`lgan talab, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda pasaya boshlaydi, ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, mahsulot ishlab chiqarish rivojlanayotgan mamlakatda to`planadi va mahsulotni yaratgan mamlakat sof importyorga aylanadi. Mahsulotning hayot sikli nazariyasi ko`plab tarmoqlar evolyutsiyasini haqqoniy aks ettiradi, ammo, xalqaro savdo rivojlanish tendentsiyalarini to`la izohlab bera olmaydi.

Raqobat hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy aloqalardagi ustunlikka qandaydir bitta yoki hatto ikkita omilning emas, balki ularning butun majmui ustunlik qilishi evaziga erishiladi. Bunday omillar ichida, masalan, fan-texnika taraqqiyoti muhim hisoblanadi, chunki eng yangi ilmiy kashfiyotga asoslangan tovar uning yangilik darajasi va boshqa xususiyatlariga qarab uzoq muddatli yoki qisqa muddatli raqobat jihatdan ustunlikni ta'minlashi mumkin. Shu munosabat bilan davlatning ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, shuningdek oliy, o`rta va kasbiy ta'limni mablag` bilan ta'minlashi juda muhim.

Jahon bozorlaridagi raqobat tashqi savdo munosabatlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Bunda firmalar raqobatlashuvchi xorijiy firmalardan raqobat jihatdan narx, texnologik yoki qandaydir boshqa ustunliklarga ega yoki ega emasligiga va bu ustunlik qanchalik barqarorligiga bog`liq bo`lgan firmalar raqobatbardoshligi tushunchasidan tashqari mamlakatning raqobatbardoshligi tushunchasidan ham foydalaniladi. M.Porter o`zining mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligi nazariyasida firmaning raqobatbardoshligiga e'tibor qaratgan holda iqtisodiyotning barcha uchta darajasida: mikro, mezo va makro darajalarda tashqi savdo munosabatlarining

o`ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan<sup>1</sup>. M.Porter mamlakat va uning firmalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi darajasini belgilaydigan qator ko`rsatkichlarni ajratadi: ishlab chiqarish omillarining miqdori va sifati, ichki bozorning sig`imi, o`zaro bog`liq va xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlarning mavjudligi, firma strategiyasi, ichki raqobat. Eng muhimi, klassik va neoklassik nazariyalardan farqli o`laroq, bunda raqobat jihatdan ustunliklarning shakllanishida hukumatlarning roli ham hisobga olinadi. Ushbu shartlarning mavjudligi mamlakat ishlab chiqaruvchilariga jahon bozorida talab etilgan arzon yoki qo`shimcha qiymati oshirilgan yoxud qiymati oshirilgan tovarlar, shuningdek turli murakkablik va modifikatsiyalarga ega bo`lgan tovarlarni yaratishga yordam beradi, bu jahon bozorining talabini mumkin qadar to`liq qondirish imkonini beradi.

M. Porterning ta'kidlashicha, xalqaro raqobatdagi muvaffaqiyat ishlab chiqarish omillarining o`zi emas, balki ular qaerda va qanchalik samarali qo`llanishi bilan belgilanadi, mamlakat xususiyatlarining aksariyati u yoki bu strategiyaning amalga oshirilishini osonlashtiradi yoki, aksincha, murakkablashtiradi. Ushbu xususiyatlar firmalarni boshqarish usullarini belgilab beruvchi xatti-harakat me'yorlaridan tortib to mamlakatda malakali ishchi kuchining ayrim turlari mavjudligi, ichki bozordagi talab xususiyati va mahalliy sarmoyadorlar o`z oldiga qo`yadigan maqsadlargacha turli xildir. Yuqorida ta'kidlanganidek, raqobatbardoshlik mikro-, mezo- va makroiqtisodiy darajalarda munosabatlar samaradorligini o`zida uyg`unlashtirishi lozim.

Shunday qilib, xalqaro savdo nazariyalarini umumlashtirish natijalari shuni ko`rsatadiki, uning mohiyatini yoritib berishga qaratilgan klassik qarashlar ham, zamonaviy qarashlar ham tashqi savdo munosabatlari rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan barcha savollarga javob bera olmasa-da, mamlakatlarning jahon bozorida o`ziga xos o`rin egallashlarini ta'minlovchi afzallik jihatlarini aniqlashga imkon beradi.

---

<sup>1</sup> Портер М. Международная конкуренция. Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993.

## **II BOB. Koreya Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlari**

### **2.1. Koreya Respublikasi tashqi savdosining tarkibi va geografiyasi**

Koreya Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosatiga eksportga yo`naltirilgan iqtisodiy siyosat sifatida ta'rif beradilar. Bu eksportni rivojlantirishga urg`u berish va importni qisqartirish, butun ishlab chiqarishni eksportga yo`naltirish va uni qo`llab quvvatlashni bildiradi.

Eksportga yo`naltirilgan siyosat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- Eksportga yo`naltirilgan iqtisodiy siyosat ko`lam samarasidan foydalanish, yangi xorijiy texnologiyalar, nou-xaularni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirishga qaratish;

- Eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish katta miqdordagi va arzon ishchi kuchi, keng hajmda xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

- Kadrlar tayorlash tizimiga katta investitsiyalar. Shuni ta'kidlash kerakki, Koreya Respublikasi bu davrda xorijiy kapitaldan ko`ra kreditlarni jalb qilishga katta ahamiyat berdi.

- Eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy o`shishning jadal sur'atlar bilan yuz berishini ko`zda tutishi. Dastlabki bosqichda mehnat sig`imi katta bo`lgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor berildi.

- Davlat tomonidan eksport uchun ishlab chiqarishni har tomondan qo`llab – quvvatlash.

Koreya Respublikasi eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishda milliy tovarlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirmay muvaffaqiyatga erisha olmasligini tushunib yetdi va natijada katta miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga kirishdi. Eksportga ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini qo`llab-quvvatlash tizimini isloh qildi. Bunda sanoatning ayrim ustuvor tarmoqlarini qo`llab-quvvatlashdan yagona sanoatni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Mamlakatda ochiq eshiklar siyosati amalga oshirila boshladi.

Natijada hozirgi davda Koreya Respublikasi qudratli eksportchi mamlakatlardan biriga aylandi. U dunyoning ko`plab mamlakatlari bilan faol savdo olib boradi.

Uch 10 yillik mobaynida ham AQSH Koreya Respublikasining asosiy iqtisodiy hamkori bo`lib kelgan. Amerika TMK lari qatnashuvida elektron va elektronika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi firmalar asosan eksportga yo`naltirilgan mahsulotlar yaratishga yo`naltirilgan edi. 70-80 yillarda bu firmalarda ishlab chiqilgan mahsulotlarning tahminan 70 % i chetga chiqarilgan.

Janubiy Koreya eksporti Yaponiya investitsiyalari hisobiga ham o`sdi. Yaponiya investitsiyalari asosan mehnatga yo`naltirilgan yoki texnik murakkab bo`lmagan ishlab chiqaruv rivojlanishiga mo`ljallangan edi. Shuni ta`kidlash qiziqki, bu yo`l bilan biryo`lakay yapon firmalari uchun tashqi bozorga kirishiga qo`shimcha, yashirin kanal hosil bo`ldi, lekin rasmiy etganda, ular o`z mahsulotlarini Janubiy Koreya ichki bozoriga sotishdi.

Natijada, Amerika importidagi Janubiy Koreya mahsulotlari 1965-1985-yillarda 10 martaga oshdi (0,3%dan 3 % ga yetdi). 1985-yilda Janubiy Koreyadan kelayotgan import mahsulotlarini tekstil va kiyim – 13%ini, maishiy elektronika – 12%ini, mis – salkam 9%ini tashkil etdi.

1996 – yil dekabrda Koreya Respublikasi 35 yil davomida omadli iqtisodiy rivojlanishidan keyin yetakchi jahon iqtisodi – Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (O`ECP) ga a`zo bo`lgandan keyin rivojlangan davlat maqomini oldi. Buning bir vaqtning o`zida salbiy tomoni ham bor edi – tashqi bozorda rivojlanayotgan mamlakatlargagina beriladigan imtiyozni yo`qotdi.

Natijada, 1990 – yilda Janubiy Koreya tashqi savdosi geografik taqsimlanishida o`zgaruvlar sodir bo`ldi. Janubiy Koreya importida va eksportida AQSH ulushi salkam 2 barobar qisqardi. Eksportda 1985 – yilda 35,5 % dan 2004 – yilga kelib 14,4 % ga , hamda importda 1985-yilda 22 %dan 11,9 % ga tushdi. Shu vaqtning o`zida Koreya Respublikasi tashqi savdo aylanmasida Sharqiy Osiyo Mamlakatlari, ayniqsa birinchi navbatda Xitoy Xalq Respublikasining ulushi salkam 2 barobar o`sdi. Sharqiy Osiyo mintaqasining Janubiy Koreya eksportidagi

ulushi 1985-yilda 27,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2006 – yilga kelib bu ko'rsatkich 47,6 % ga o'sdi.

Bu davrda Janubiy Koreya o'zining tashqi savdo tuzilmasini kelib chiqqan tashqi iqtisodiy aloqalar mintaqaviy taqsimlanishi bilan mos kelish muammosiga duch keladi. Shuningdek, AQSH ga Janubiy Koreya metallurgiya mahsulotlari importi kirib kelishida ham to'siqlarga duch keldi va Janubiy Koreya mahsulotlari raqobatbardoshligi tushib ketdi ( ba'zi turdagikimyoy va neft kimyoy tavarlari, sanoat uskunalari). Yengil sanoat ham ashyosi bilan bu mahsulotga AQSH ga Janubiy Koreya eksportining tahminan yarmi to'g'ri kelardi. Janubiy Koreyaliklar uchun Amerika bozorida dilemma yuzaga keldi, bunda an'anaviy eksport tovarlari kirishi yomonlashdi, yangi tovarlar esa (sanoat uskunalari, innovatsion soha mahsulotlari) hali iste'molchilar ishonchiga kirib ulgurmagani edi.

Oxirgi 30 yil ichida Koreya Respublikasi o'zining eksporti o'sish sur'ati bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Koreya eksportining o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 22,4 % ni tashkil qildi. Shu bilan birga 2011 yilga kelib, Koreya eksporti jahon eksporti hajmining 3% ini tashkil qilib, 555,214 mlrd dollarni tashkil qildi. Umumiy tashqi savdosi esa o'tgan yilga nisbatan 21,1 % ga o'sib, 1079,627 mlrd dollarni tashkil qildi. 2011 yilda Koreya Respublikasi eksporti-19 % ga , importi esa 23,3 % ga o'sdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi mamlakatlar bilan Koreya aktiv ba'zilari bilan passiv savdo balansiga ega. Jumladan, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Germaniya, BAA, Qatar, Indoneziya bilan passiv savdo balansiga, Xitoy, AQSh, Gonkong, Singapur, Tayvan mamlakatlari bilan aktiv savdo balansiga ega. Mamlakatning umumiy savdo balansi 2008 yilda boshlab passiv xususiyatga ega bo'ldi, 2009 yildan to hozirgacha u yana musbat ko'rsatkichga ega bo'ldi, bunga yuz bergan jahon moliyaviy inqirozini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

2008-2010 yillardagi inqiroz Koreya Respublikasining iqtisodiyotiga kuchli ta'sir qildi. 2008 yilda mamlakatda sanoatda ishlab chiqarishning qisqarishi 26 % ni tashkil qildi, ishsizlik o'sdi, dollarga nisbatan von kursi ancha tushdi. Inqirozga va von kursi tushishiga qarshi 2008-yilgi davlat dasturi koreya eksportyorlari

uchun yaxshi muhit yaratdi, 2009-yil mobaynida mamlakat iqtisodiyoti asta sekin tiklandi. Jahon bozorini tiklanishidan so`ng 2010-yilga kelib Koreya iqtisodiyoti o`shishi tezlashdi. YaIM o`shishi 5,2 % ni tashkil qildi. Ishsizlik esa 4,4 % dan 3,8 % ga tushdi.

Global moliyaviy iqtisodiy inqiroz oqibatida Janubiy Koreyaning eksport hajmi 2008-yil oxiridan 2009-yilning 3-choragigacha qisqardi. Jahon iqtisodiyoti asta sekin tiklanishi 2009-yilning 4-choragidan boshlab Koreya eksporti o`shishi tiklanishiga olib keldi va 2010-yilning birinchi choragida o`tgan yilning huddi shu davriga nisbatan 36,2 % ga o`sdi.

April oyida rivojlangan mamlakatlarning eksporti o`shishi o`rtacha 17,6 % ni, Yangi Industrial Mamlakatlarda esa 21,1 % ni tashkil qildi. Bu davrda Koreya eksporti o`shish sur`at 29,9 % ni tashkil qildi. Bu esa Koreya iqtisodiyotining to`liq tiklanganidan dalolat beradi.

Janubiy Yevropa mamlakatlaridagi budjet tanqisligiga qaramasdan Koreya Respublikasi eksporti o`shishida muvaffaqiyatga erisha oldi. Bozorda yangi smartfon telefonlarini paydo bo`lishiga qaramay Janubiy koreya mobil telefon eksporti 18 % ga tushdi, yarim o`tkazgich eksporti 97% ga, avtomobil roslash-57% ga o`sdi. Kemasozlikda ham asta sekin vaziyat yaxshilandi. Janubiy Koreya kemasozligiga buyurtma bo`yicha Xitoyni ortda qoldirib, jahon reytingida o`zining birinchiligiga qaytdi.

Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi (Korea International Trade Association – KITA) ma`lumotlari bo`yicha 2010-yil yakunlari bo`yicha Koreya Respublikasi savdo aylanmasi 2009-yilga nisbatan 29,9% ga o`sdi va qiymat ko`rsatkichida 891,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Shu bilan birga tashqi savdo balansining ijobiy saldosi 41,2 mlrd. AQSh dollariga yetdi.

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, Koreya Respublikasi 2010-yilda dunyoda savdo aylanmasi hajmi bo`yicha 9-o`rinni, shu jumladan, eksport bo`yicha 7- va import bo`yicha 9-o`rinni egalladi.

**2005-2011-yillardagi Koreya Respublikasi tashqi savdo dinamikasi**

(mlrd. AQSh dollari, %)<sup>1</sup>

	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
<b>Savdo aylanmasi</b>	545,6	634,9	728,3	857,3	686,6	891,6	1079,627
	(14,1)	(16,4)	(14,7)	(17,7)	(-19,9)	(29,9)	21,1%
<b>Eksport</b>	284,4	325,5	371,5	422,0	363,5	466,4	555,214
	(12,0)	(14,4)	(14,1)	(13,6)	(-13,9)	(28,3)	19,0%
<b>Import</b>	261,2	309,4	356,8	435,3	323,1	425,2	524,413
	(16,4)	(18,4)	(15,3)	(22,0)	(-25,8)	(31,6)	23,3%
<b>Tashqi savdo saldosi</b>	23,2	16,1	14,6	-13,3	40,4	41,2	30,801

**Izoh:** qovus ichida o'tgan yilning xuddi shu davriga nisbati bo'yicha o'sish sur'ati (%) ko'rsatilgan;

Koreya Respublikasining tashqi savdosining asosiy ko'satkichlari 2.1.1-jadval aks etgan, jadvaldan ko'rinib turganidek, mamlakatning tashqi savdosi 2009-yilni inobatga olmasa, 2011 yilgacha o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga mamlakatning jahon eksportidagi ulushi yildan yilga o'sib borgan va 2005 yilda o'tgan yilga nisbatan 12% ga o'sib 284,4 mlrd AQSh \$ ni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 19 % ga yetib 555,214 mlrd AQSh \$ ni tashkil etgan. Koreya Respublikasining 2011 yildagi eksport hajmi 2005 yilga nisbatan salkam 2 baravar o'sganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday jahon importida Koreya importining hissasi ham ortib borgan. 2005 yilda Koreya importi 261,2mlrd AQSh \$ ni tashkil qilgan bo'lsa 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 524,413 mlrd \$ ga yetganini ko'rishimiz mumkin.

Janubiy Koreya o'zining tashqi iqtisodiy munosabatlarini diversifikatsiyasini saqlab qolishga intilgan holda XXI asr boshlaridan qator mamlakatlar, shu

<sup>1</sup> **Manba:** Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi, 2012-yil aprel.

jumladan, Chili, Singapur, AQSH, Meksika, Hindiston, Yaponiya, Xitoy, Kanada bilan erkin savdo to'grisida muzokara va kelishuvlarni imzoladi.

Janubiy Koreya iqtisodiyotida savdo juda muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra Janubiy Koreya ko'p turdagi tovarlarni import va eksport qiladi. Janubiy Koreya yoqilg'i, elektrik va mexanik uskunalari, temir va po'latni import qiladi.

Asosiy eksport mahsulotlarga esa elektr va elektronika tovarlar, avtomobillar, transport detallari, kema, lodka va boshqalar kiradi. Janubiy Koreyaning qulay geografik joylashuviga ko'ra, Koreyaning SouthkoreaRSJ International kompaniyasi kemasozlik xizmatlarini amalga oshiradi.

Janubiy Koreyada dunyodagi xotira chiplarining 45%i ishlab chiqariladi.

Janubiy Koreyaning elektronika va mashinasozlik shirkatlari jahonda yetakchi o'rinlardadir. Ular qatoriga LG, Samsung va boshqalar kiradi. Butun dunyodagi LCD monitorlarning 50%i aynan Janubiy Koreyada tayyorlanadi. Samsung va LG mobil telefon ishlab chiqaruvchilari orasida dunyoda yetakchi shirkatlardandir.

Janubiy Koreya jahon bozorida informatsion texnologiyalardan yarim o'tkazgichlarni eksport qilish bo'yicha yirik eksporterlikni ushab kelmoqda. Hozirgi kunda Janubiy Koreya hukumati robot texnologiya sohasini rivojlantirishga katta mablag' ajratmoqda.

2008 yilda Koreya hududining katta emasligiga qaramay neft import qilish bo'yicha 5 o'rinda turdi. 2008 yilda neft umumiy Koreya importuning 15 %ini tashkil qildi. Neftdan keyingi asosiy import mahsuloti – gaz hisoblanib, umumiy importning 3 % ini tashkil qiladi.

Janubiy Koreya jahonda suyultirilgan tabiiy gaz import qilishda Yaponiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U hozirgacha Indoneziya, Malayziya va Bruney bilan suyultirilgan tabiiy gaz sotib olish to'g'risidagi shartnomalarni imzolagan bo'lib, 2013-2015 – yillarda ularning muddati tugaydi.

2010-yilda Koreya Respublikasi eksportining asosiy tovar pozitsiyalari quyidagilardan iborat bo'lgan<sup>1</sup>:

- suyuq kristallar asosidagi qurilmalar – 29,6 mlrd. AQSh dollari (o'sish 28,3% ni tashkil qildi);
- neft va neft mahsulotlari – 24,2 mlrd. AQSh dollari (o'sish 36,7% ni tashkil qildi);
- xotirlovchi qurilmalar – 21,6 mlrd. AQSh dollari (o'sish 81,1% ni tashkil qildi);
- yuk va yuk-yo'lovchi suzuvchi transport vositalari – 20,2 mlrd. AQSh dollari (o'sish 52,3% ni tashkil qildi);
- dvigatel hajmi 1500 sm<sup>3</sup> dan 3000 sm<sup>3</sup> gacha bo'lgan yengil avtomobillar – 19,3 mlrd. AQSh dollari (o'sish 34,8% ni tashkil qildi).

2010-yilda Koreya Respublikasi importining asosiy tovar pozitsiyalari quyidagilardan iborat bo'lgan<sup>2</sup>:

- xom neft va xom, bituminoz jinlardan olingan neft mahsulotlari – 68,7 mlrd. AQSh dollari (o'sish 35,3% ni tashkil qildi);
- suyultirilgan tabiiy gaz – 17,0 mlrd. AQSh dollari (o'sish 22,6% ni tashkil qildi);
- yengil distillyatlar va mahsulotlar – 15,0 mlrd. AQSh dollari (o'sish 40,1% ni tashkil qildi);
- protsessorlar va kontrollerlar – 12,8 mlrd. AQSh dollari (o'sish 12,0% ni tashkil qildi);
- tosh ko'mir – 11,4 mlrd. AQSh dollari (o'sish 27,0% ni tashkil qildi).

Koreya Respublikasi eksportining qiymat hajmi 2010-yilda o'tgan yilning xuddi shu davriga nisbatan 28,3% ga o'sdi va 466,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. 2010-yilda Koreya Respublikasi import hajmi 31,6% ga o'sdi va qiymat ko'rsatkichida 425,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> www.Polpred.com-Обзор ИнНоСМИ

<sup>2</sup> www.Polpred.com-Обзор ИнНоСМИ

<sup>3</sup> Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi ma'lumoti

**Geografik taqsimot bo'yicha 2009-2010-yillarda Koreya Respublikasi eksportining asosiy ulushi quyidagi davlatlarga to'g'ri keldi:** Xitoy, AQSH, Yaponiya, Gonkong, Singapur, Tayvan, Hindiston, Germaniya, Vetnam va Indoneziya Koreya Respublikasining eksport ulushidan joy olgan 1-chi 10 talikka kiradi. Koreya Respublikasi yuqorida aytib o'tilgan mamlakatlarga eksporti hajmi va hissasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

2.1.2-jadval

**2009-2010-yillardagi Koreya Respublikasining asosiy ekportyor davlatlari**  
(mlrd. AQSh dol, %)<sup>1</sup>

№	2009				№	2010			
	Mamlakat	Hajmi	Hissasi	O'sish		Mamlakat	Hajmi	Hissasi	O'sishi
1	XXR	86,703	23,9	-5,1	1	XXR	166,838	35,8	34,8
2	AQSh	37,650	10,4	-18,8	2	AQSh	49,816	10,7	32,3
3	Yaponiya	21,771	6,0	-22,9	3	Yaponiya	28,176	6,0	29,4
4	Gonkong	19,661	5,4	-0,6	4	Gonkong	25,294	5,4	28,7
5	Singapur	13,617	3,7	-16,4	5	Singapur	15,244	3,3	11,9
6	Marshall orollari	9,672	2,7	103,2	6	Tayvan	14,830	3,2	56,1
7	Tayvan	9,501	2,6	-17,1	7	Hindiston	11,435	2,5	42,7
8	Germaniya	8,821	2,4	-16,2	8	Germaniya	10,702	2,3	21,3
9	Hindiston	8,013	2,2	-10,7	9	Vetnam	9,652	2,1	35,0
10	Vetnam	7,149	2,0	-8,4	10	Indoneziya	8,897	1,9	48,3

**Geografik taqsimot bo'yicha 2009-2010-yillarda Koreya Respublikasi importining asosiy ulushi quyidagi davlatlarga to'g'ri keldi:** Xitoy, Yaponiya, AQSH, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Germaniya, Indoneziya, Tayvan, BAA va Qatar. Koreya Respublikasining yuqorida aytib o'tilgan mamlakatlardan qilgan import hajmi va hissasi quyidagi jadvalda keltirilgan:


<sup>1</sup> Manba: Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi, 2011-yil mart.

**2009-2010-yillardagi Koreya Respublikasining asosiy importyor davlatlari**  
(mlrd. AQSh dollari, %)<sup>1</sup>

№	2009				№	2010			
	Mamlakat	Hajmi	Hissasi	O'sish		Mamlakat	Hajmi	Hissasi	O'sish
1	XXR	54,246	16,8	-29,5	1	XXR	71,574	16,8	31,9
2	Yaponiya	49,428	15,3	-18,9	2	Yaponiya	64,296	15,1	30,1
3	AQSh	29,039	9,0	-24,3	3	AQSh	40,403	9,5	39,1
4	Saudiya Arabistoni	19,737	6,1	-41,6	4	Saudiya Arabistoni	26,820	6,3	35,9
5	Avstraliya	14,756	4,6	-18,0	5	Avstraliya	20,456	4,8	38,6
6	Germaniya	12,298	3,8	-16,7	6	Germaniya	14,305	3,4	16,3
7	Tayvan	9,851	3,0	-7,4	7	Indoneziya	13,986	3,3	51,0
8	BAA	9,310	2,9	-51,6	8	Tayvan	13,647	3,2	38,5
9	Indoneziya	9,246	2,9	-18,2	9	BAA	12,170	2,9	30,7
10	Qatar	8,386	2,6	-41,7	10	Qatar	11,915	2,8	42,1

Mamlakatning eng yirik eksport va import hamkorlari bilan savdo aylanmasi 2.1.2-2.1.3-jadvallarda keltirilgan. Bu jadvallarni umumlashtirib Koreya savdosida yuqoridagi mamlakatlarning ulushi 2.1.1. rasmda ifodalangan. 2008 yilda Koreya Respublikasining eng yirik savdo hamkori AQSh hisoblanib, Koreya tashqi savdosi tovar aylanmasining 19 % ini tashkil qilgan. Ikkinchi o'rinda Yaponiya-14,8%ni va nihoyat uchinchi o'rinda Xitoy turgan edi. Koreya tashqi savdosida Xitoy ulushi 10,8 % ni tashkil qilgan edi. 2009 yilga kelib Koreya tashqi savdosida mamlakatlar ulushi tubdan o'zgardi. Koreya tashqi savdo aylanmasida Xitoy uchinchilikdan birinchilikka chiqdi. 2010 yilga kelib eng yirik savdo sherigi bo'lib Xitoy hisoblandi.

<sup>1</sup> Manba: Koreya xalqaro savdo assotsiatsiyasi, 2011-yil mart.



### 2.1.1- rasm. 2010-yilda Koreya tashqi savdosida ayrim mamlakatlar ulushi.<sup>1</sup>

Hozirgi paytda Koreya savdo aylanmasida bu mamlakatning ulushi – 26,2 % ni tashkil etdi. Koreya Respublikasi va Xitoy o`rtasidagi savdo aylanmasi 2010 yilda 238,402 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi. Eng rivojlangan yettilikka kiruvchi mamlakatlar, jumladan eng yaqin qo`shnisi Yaponiya bilan savdo aloqalari ham katta bo`lib, 92,472 mlrd dollarni tashkil qildi. Bu esa Koreya savdosining 10,55 % ni tashkil qiladi. Koreya tashqi savdosida Amerika Qo`shma Shtatlari ulushi esa - 10,1 % ni tashkil qilib ikki mamlakat o`rtasidagi savdo aylanmasi – 90,219 mlrd dollarni tashkil qiladi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Germaniya ham yirik savdo sheriklar hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so`nggi yillarda mamlakat eksportning asosiy qismini yarim o`tkazgichlar, yengil avtomobillar, kompyuter texnikasi, mobil telefon vositalari, dengiz kemalari, elektron asboblar, kiyim kechaklar tashkil etadi. Bu mahsulotlar ko`p qismi tashqi bozor uchun ishlab chiqiladi. Ayniqsa, Koreyada ishlab chiqarilgan hamma avtomobilning deyarli yarmi , shuningdek deyarli barcha yirik kemalar xorijga chiqariladi. Mamlakat o`z eksportini yanada diversifikatsiya qilish maqsadida BRIK mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirmoqda.

<sup>1</sup> Manba: [www.polpred.com](http://www.polpred.com) materiallar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## **2.2 Koreya Respublikasining investitsiya faoliyati**

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi, qo`shimcha ish joylari yaratish, ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda, shuningdek zamonaviy texnologiyalar rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo`lgan xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilish masalasiga Koreya Respublikasi juda katta ahamiyat beradi.

Koreya Respublikasi hukumati rivojlanishning yangi modelini taklif etdi, bu o`z ichiga ish amaliyoti sifatini oshirishdan, xalqaro standartlargacha olib chiqish, mehnat resurslari va texnologiyalarni rivojlantirish va institutsion tizimning samarasini oshirishdan iborat. Mamlakat rahbariyati islohatlar yo`lidan bormoqda va kelgusida ham moliya va korporativ sektorda tizimni yangilash ishlarini olib borish tarafdoridir, shu bilan bir vaqtda, iqtisodiy o`shishni ta'minlovchi egiluvchan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Koreya Respublikasining maqsadi, o`tmishga ildiz otgan muammolarni hal etib, 21 asrga mos keluvchi, rivojlangan iqtisodiyotli iqtisodiy tizim tuzishdan iborat.

Koreya Respublikasi 2006 yilda 11 mlrd. AQSh doll. chet el sarmoyasini jalb etdi. Sarmoyadorlar moliya va sug`urta sohalaridan tashqari, fan va texnologiyalar sohasiga, logistik markazlar va ko`p millatli korporatsiyalarning shtab-kvartiralarini ochishga qiziqish bilan qarashmoqda. Janubiy Koreyada tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan elektronika sohasi ham katta qiziqish uyg`otmoqda.

2005 yilda Koreya Respublikasi Intellektual mulk xalqaro tashkiloti tomonidan ro`yxatga olingan xalqaro patentlarga berilgan talabnomalar soni bo`yicha oltinchi o`rinni egalladi. Koreyaning yana bir afzalligi, uning odam resurslaridir. Har yili fan va muxandislik mutaxassisligi bo`yicha 100 mingdan ortiq mutaxassislar mamlakat universitetlarini tugatishadi. Yildan - yilga magistrlik yoki fan nomzodi unvonini olishga intilayotgan talabalar soni ortib bormoqda. Sarmoyadorlar uchun esa bu yangi mahsulotlar va xizmatlarning ochilishi uchun juda ham qulay sharoitlarni yaratadi.

Mamlakat kelajagi uchun sarmoyalarning ahamiyati kattaligini inobatga olgan holda, Koreya Respublikasi sarmoyadorlar uchun barcha qulayliklarni yaratishga imkon qadar harakat qilmoqda. Hukumat tomonidan 2002 yil aprel oyida, biznesni yanada jalb etish va Janubiy Koreya valyuta bozorini Sharqiy Osiyo moliya markaziga aylantirish maqsadida, o`rta muddatli va uzoq muddatli chet el valyutasi bozorini rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi. 2011 yilga qadar mo`ljallangan bu rejalar uch bosqichga ajratilgan. Albatta birinchi va ikkinchi bosqichdagi chet el valyutasini liberallashtirishga oid bo`lgan cheklanmalar 2011 yilga kelib bekor qilinadi. 2002 yilda Koreya Bankining sertifikatlashtiruv jarayoni bekor qilindi va xususiy shaxslar va kompaniyalarning moliyaviy operatsiyalari jarayonidagi xujjatlarni rasmiylashtirish bir muncha soddalashtirildi. Mamlakat tashqarisida mablag` qo`yish jarayonini jonlantirish ma`sadida, 2005 yilda hukumat liberallashtirish masalalari ustida faol ish bordi. 2006 yilda mablag` bilan bog`liq bo`lgan barcha operatsiyalar litsenziya tizimidan oddiy axborot berish tizimiga o`tkazildi, bu esa o`z navbatida sarmoya kelishining liberallashtirishini faollashtirdi.

To`g`ridan-to`g`ri sarmoyalashga ta`luqli bo`lgan barcha qonun va qoidalar osonlashtirildi va yagona xuquqiy tizimga keltirildi, bularning barchasi 1988 yil noyabr oyida kuchga kirgan “Chet el sarmoyalarini rag`batlantirish haqidagi qonun” da mujassamlantirilgan. Chet el sarmoyalarini to`g`ridan-to`g`ri jalb etish ma`sadida turli xil rag`batlantirish usullari, shu qatorda soliqlardan ozod etish yoki soliqlar me`yorini pasaytirish kabi usullar qo`llaniladi. Hukumat tomonidan importga bo`lgan cheklanishlar, maxsus tarifga kiritilgan mahsulotlar ro`yxati bekor qilib boriladi.

Koreya Respublikasida xizmat ko`rsatish sohasini liberallashtirish jarayoni juda ham qiyin kechdi, chunki ichki xizmat ko`rsatish bozori yaxshi rivojlanmagan edi. Biroq shunga qaramay, hukumat tomonidan ushbu bozornining to`liq ochilishiga qaratilgan bir qator bir tomonlama chora-tadbirlar ko`rildi. Masalan, hayotni sug`urta qilish sohasi chet ellik sug`urtachilar uchun ochib qo`yilgan. Chet el banklari milliy tashkilotlar singari barcha xuquqlarga ega. Qachonlardir

faqatgina chet el sarmoyasining ulushli ishtiroki bo'lgan qo'shma korxonalar uchun ochiq bo'lgan reklama bozori, bugungi kunda butkul chet elliklar uchun ochib yuborilgan. Intellektual xususiylik xuquqini mustahkam himoya qilish mamlakatning yuqori texnologik darajasi va asosiy savdo hamkorlari bilan hamkorlik qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi hukumat tomonidan tan olinadi. Shu sababdan, 1987 yildan boshlab hukumat tomonidan intellektual xususiylik xuquqlarini himoya qilishni kuchaytirish borasida tubdan islohatlar o'tkazildi. Mualliflik xuquqlarini himoya qilish haqidagi qonunda koreyalik va chet ellik mualliflarning ishlarini har tomonlama himoya qilish nazarda tutilgan. Mualliflik xuquqi muallifning umr davomida va uning vafotidan so'ng 50 yil kuchga ega. Bundan tashqari, intellektual xususiylikka tajovuz qilishdan himoya qilish kafolati kompyuter dasturlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Koreya Respublikasi, Yaponiya va Xitoy barqarorlashtirish qo'shma fondi yaratish haqida kelishishdi. Qo'shma fond yaratish maqsadi – 1997 yil Osiyo moliyaviy inqirozi kabi halokat yuzaga kelishini oldini olishdan iborat. Koreya Respublikasi, Xitoy va Yaponiyaning umumiy valyuta rezervi miqdori – 2,6 trln \$ ni tashkil qiladi.

Financial Times Stock Exchange Britaniya reyting kompaniyasi Janubiy Koreya fond bozorini “ilg'or rivojlanayotgan” dan “rivojlangan” statusga ko'tardi va bu esa Janubiy Koreya investitsiya jozibadorligini oshirishi kerak.

2008 yilda Koreya Respublikasi hukumati mamlakatga horijiy investitsiya jalb qilish dasturini ishlab chiqishni davom ettirdi. Xorijiy fuqarolar uchun arendaga mo'ljallangan uy-joy qurilishi, xorijiy va qo'shma kapitalli kompaniyalar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari, shunigdek ularning boshlang'ich faoliyati davomida soliqdan ozod qilish ko'zda tutildi.

2010 yilda Koreya Respublikasining chet eldagi investitsiyalari hajmi 7,4% o'sib 21,8 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Chet el investitsiyalari tarkibida Koreya yirik kompaniyalarining ulushi 69,1%, o'rta va kichik korxonalar ulushi 26,1%, jismoniy shaxslarning ulushi 4,6%ni tashkil etdi.

**Koreya Respublikasining chet eldagi ma'lum qilingan investitsiyalarini tashkilot turi bo'yicha taqsimlanishi, mlrd AQSH doll.<sup>1</sup>**

2.2.1-jadval

	2006	2007	2008	2009	2010	2010/2009, %
Yirik kompaniyalar	4,30	4,38	6,3	13,5	15,1	11,9
O'rta va kichik korxonalar	3,09	3,77	3,5	5,6	5,7	1,8
Jismoniy shaxslar	0,67	0,89	0,9	1,2	1,0	16,6

2009 yilda koreya investitsiyalarining eng yirik qabul qiluvchilari AQSH (4,94 mlrd. doll.), Xitoy (3,83 mlrd. doll.), Gongkong (2,49 mlrd. doll.), V'etnam (1,35 mlrd. doll.), Gollandiya (649,3 mln. doll.), Avstraliya (579,2 mln. doll.), Indoneziya (535,7 mln. doll.), Singapur (522,6 mln. doll.) bo'lgan<sup>2</sup>.

1980 yildan 2010 yilgacha bo'lgan Koreya Respublikasining tashqi investitsiyalari hajmi 142,1 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Ularni mintaqalar bo'yicha quyidagi ko'rinishda taqsimlash mumkin:

Osiyoga 66,54 milliard AQSH dollari – chunki, bu mintaqada Koreya Respublikasining yirik moliyaviy hamkorlari sanaladigan Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Gongkong bo'lib, shuningdek, asosan tabiiy resurslardan foidalangan holda ishlab chiqarish sohasi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan moliyaviy hamkorligi asosiy o'rin tutadi.

Yaqin Sharqqa 21,6 milliard, Shimoliy Amerikaga 37,28 milliard, Yevropaga 20,28 milliard, Markaziy va Janubiy Amerikaga 10,12 milliard, Afrika va Okeaniyaga 5,28 milliard AQSH dollari miqdorida to'g'ri keladi. Bu yerda ham sohalar bo'yicha taqsimlanishini ko'radigan bo'lsak, Koreyaning to'g'ridan to'g'ri

---

<sup>1</sup> (The Bank of Korea, mart 2011)

<sup>2</sup> Koreya Respublikasi tashqi ishlar vazirligi ma'lumotlari

investitsiyalari, asosan, ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo, qazib chiqarish, moliya, ko'chmas mulk va hizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi.

**Koreyaning chet eldagi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarining  
mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi, mlrd AQSH doll<sup>1</sup>**

2.2.2-jadval

	2007		2008		2009		1980-2010	
	Loyihalar	Miqdor	Loyihalar	Miqdor	Loyihalar	Miqdor	Loyihalar	Miqdor
Osiyo	3.472	6,1	15.706	10,73	14.102	10,92	107.818	67,55
Yaqin Sharq	34	0,4	181	0,15	234	0,18	1.646	21,6
Shimoliy Amerika	1.334	2,1	3.008	3,55	2.851	5,11	24.347	37,28
Yevropa	166	1,2	762	1,20	948	3,00	5.548	10,12
Markaziy va Janubiy Amerika	60	0,5	382	3,97	365	1,62	3.677	20,28
Afrika va Okeaniya	119	0,4	573	0,75	643	1,02	5.455	5,28
<b>JAMI</b>	5.185	10,7	20.692	20,35	19.143	21,68	148.491	142,1

Koreya Respublikasi Eksport-import banki (The Export-Import Bank of Korea – Korea Eximbank) ma'lumotlari bo'yicha 2010-yil yakunlariga ko'ra Koreya Respublikasidan xorijga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar miqdori 23,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi ). 2010-yil oxiriga kelib Koreya Respublikasidan yig'ilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy miqdori 165,7 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi (178 627 loyiha).

<sup>1</sup> (The Export-Import Bank of Korea, mart 2011)

**2010-yilda Koreya Respublikasidan tarmoqlar bo'yicha bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning miqdori: (ming AQSh dollari)<sup>1</sup>**

2.2.3-jadval

Iqtisodiyot tarmog'i		Investitsiyalarning miqdori		
		Qayd qilingan	Investitsiya qilingan	Solishtirma salmog'i
1.	Qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik	144330	116656	0,5%
2.	Konlarga ishlov berish va foydali qazilmalarni qazib olish	9955005	7171705	31,1%
3.	Ishlab chiqarish	8610208	6526595	28,3%
4.	Elektr energiyasi, gaz, bug' va suvni ishlab chiqarish va taqsimlash	451815	309587	1,3%
5.	Chiqindilarni yo'q qilish va ularni qayta ishlash	9195	5279	0,0%
6.	Qurilish	321138	269930	1,2%
7.	Ulgurji va chakana savdo	1546325	1151298	5,0%
8.	Yuk tashish	841304	530220	2,3%
9.	Axborot va aloqa	495802	443907	1,9%
10.	Ko'chmas mulk va ijara	2254674	1513148	6,6%
11.	Bank, investitsiya, moliya va sug'urta faoliyati	5 878394	3193830	13,8%
12.	Ta'lim	25420	18248	0,1%
13.	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari	1678959	1437696	6,2%
14.	O'yin-kulgi sohasi	322028	123509	0,5%
15.	Boshqa tarmoqlar	368415	281179	1,2%
<b>Jami:</b>		<b>32 903 012</b>	<b>23 092 787</b>	<b>100,0%</b>

<sup>1</sup> Manba: Koreya Respublikasi Eksport-import banki, 2011-yil mart.

Koreya Respublikasi innovatsion iqtisodiyoti vazirligi (Ministry of Knowledge Economy – MKE) ma’lumotlariga ko’ra, 2010-yilda Koreya Respublikasiga kiritilgan to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar miqdori 19,0 mlrd. AQSh dollaridan ziyodni tashkil qildi. 2010-yil yakuniga ko’ra Koreya Respublikasi iqtisodiyotida yig’ilgan to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalarning umumiy miqdori – 173,6 mlrd. AQSh dollari (49 671 loyiha).

**2010-yilda Koreya Respublikasiga tarmoqlar bo’yicha kiritilgan to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalarning miqdori.** (ming AQSh dollari)<sup>1</sup>

2.2.4-jadval

Iqtisodiyot tarmog’i		Investitsiyalar miqdori		
		Investitsiya qilingan	Loyihalar miqdori	Solishtirma salmog’i
1.	Qishloq, o’rmon xo’jaligi va baliqchilik	3 984	25	0,03%
2.	Ishlab chiqarish	6 657 227	613	50,9%
3.	Xizmat ko’rsatish sohasi	6 302 280	2 430	48,2%
4.	Ulgurji va chakana savdo	964 599	1 347	7,4%
5.	Restoran va mehmonxona biznesi	57 957	304	0,4%
6.	Axborot va aloqa	21 387	7	0,2%
7.	Bank, investitsiya, moliya va sug’urta faoliyati	959 607	90	7,3%
8.	Yuk tashish va saqlash	197 003	110	1,5%
9.	Ko’chmas mulk va ijara	2 686 530	122	20,6%
10.	O’yin-kulgi sohasi	110 115	44	0,8%
11.	Boshqa xizmatlar	1 305 083	406	10,0%
<b>Jami:</b>		<b>19 265 772</b>	<b>5498</b>	<b>100,0%</b>

<sup>1</sup> **Manba:** Koreya Respublikasi innovatsion iqtisodiyoti vazirligi, 2011-yil mart

**Koreya Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha chet eldagi  
to'g'ridan to'g'ri investitsiyalari, mln. doll<sup>1</sup>**

2.2.5-jadval

	2007	2008	2009	1968-2010
Qishloq ho'jaligi va baliqchilik	42,9	102,32	84,3	751,0
Qazib olish sanoati	1426,9	2000,39	3490,8	10745,6
Ishlab chiqarish	5067,2	7160,19	6864,5	53441,9
Qurilish	675,7	887,02	855,2	3374,9
Ulgurji va chakana savdo	1286,7	2461,39	3633,2	19004,1
Transpor va logistika	197,1	382,48	523,5	1447,8
Telekommunikatsiya	207,4	137,49	598,6	3344,6
Moliya va sug'urtalash	1,4	1033,06	1619,4	7855,1
Restoran va mehmonxona biznesi	208,5	314,17	350,7	2371,7
Ko'chmas mulk	521,3	1678,58	1646,1	6918,4
Hizmat ko'rsatish sohasi	1096,1	3400,32	1779,3	6941,4
Boshqa sohalar	0,0	794,27	409,9	2412,5
<b>JAMI</b>	10731,1	20351,73	21855,5	118609,2

<sup>1</sup>The Export-Import Bank of Korea, mart 2011

So'nggi ikki yildan beri Koreya Respublikasi Vetnam iqtisodiyotining yirik investori hisoblanadi. 2011 yilga qadar Koreya Respublikasi Vetnamga 1 milliard AQSH dollari miqdorida iqtisodiy yordam ko'rsatdi. Hozirgida Koreyaning qurilish korxonalarini Vetnamda 70 ga yaqin loyihalarni amalga oshirishmoqda va ularning umumiy qiymati 14 milliard AQSH dollari tashkil etadi. Buga 2008 yilda Koreya hukumati tomonidan qurilish kompaniyalarini qo'llab quvvatlash fondining tashkil etilishi sabab bo'ldi. Ushbu fond hajmi 1,9 milliard AQSH dollarini tashkil etib, u koreys qurilish korxonalarining chet eldagi loyihalarni qo'lga kiritishlariga yordam berishdan iboratdir.

Chet el investorlari 2012 yil mart oyida Janubiy Koreya obligatsiyalarini sotib olishni oshirdilar, bu ko'rsatkich ohirgi 8 oy ichida maksimal darajaga chiqdi. Mamlakat moliyaviy boshqaruv organlarining ta'kidlashicha, bu qog'ozlarga chetdan jalb qilingan investitsiyalar hajmi tarixiy absolyut rekordga erishilgan.

Shunday qilib, 2012 yil mart oyida kiritilgan investitsiyalar hajmi 1 mlrd. 535mln. AQSH dollariga o'sib va jami 75 mlrd. 479 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Xitoylik investorlar ham o'z haridlarini tiklagan holda, mablag'lari hajmini 131 mln 599 ming AQSH dollariga etkazdi. Xitoylik investorlarning fevral oyidagi faolligi to'htab qolgan edi. O'sha jarayonda ekspertlar tomonidan investitsion portfellar qayta ko'rib chiqishga berilgan. Financial Supervisory Service ma'lumotlariga qaraganda, Janubiy Koreya aksiya bozorlarida chet el investorlarning ulushi 31% tashkil etadi va chet elliklar jami mahalliy qarzdor bozorining 7% ulushini egalari hisoblanadilar.

Samsung Xitoyda yangi zavod qurish uchun 7 mlrd. dollar sarflashga tayyor. Siandagi korxonada NAND flash-xotiralarni ishlab chiqaradi. Aytish joizki, aynan XXR bugungi kunda flash-xotiralarni sotish imkoni beruvchi va tez sur'atlarda rivojlanayotgan bozor hisoblanadi.

Janubiy Koreya kompaniyasining matbuot-kotibi Ken Noning xabar berishicha, direktorlar kengashi ushbu loyihaga 2.3 mlrd. \$ investitsiya ajratish uchun allaqachon qaror qabul qilganlar. O'zining manbalariga asoslangan The

Korea Timesning aytishiga qaraganda, zavodning qurilish maydoni sifatida Pekin ham ko'zlangan edi, lekin Sian hokimligi investorlarga maksimal foydali sharoitlar yaratib bergan.

Xitoydagi bu zavod Samsungning chet eldagi ikkinchi flesh-xotira ishlab chiqaruvchi korxonasi bo'ladi. Janubiy Koreyaning ilk korxonasi Texasda joylashgan. Unda ham mobil uskunalar, jumladan iPad uchun ham protsessorlar ishlab chiqariladi. "Planshet jangiga" qaramasdan, Samsung Apple mahsulotlari uchun ehtiyot qismlarini yetkazib berishni o'tgan yilgi 7.8 mlrd. \$dan 11 mlrd. \$ga oshirmoqchi.

Samsung flesh-xotira, chiplarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga faollik bilan investitsiya kiritmoqda. O'tgan yili kuz faslida Koreya Respublikasida yana bir zavod ishga tushirilgan edi. Loyiha qiymati 10.6 mlrd \$ga yetgan edi. Bu dunyodagi ixtisoslashgan eng katta zavod hisoblanadi. Blumberg Samsungning bu sohadagi ekspansiyasini 2015-yilga qadar flesh-xotiralarga talabning 49%ga o'sish bashorati bilan bo'g'lamoqda.

2011-yilda Koreya kompaniyalarining xorijga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalari mamlakat ichiga kiritilayotgan investitsiyalardan 3,2 martaga oshdi. Natijada esa xorijga sof investitsiya oqimi record darajaga yetdi va 30,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Bu esa ishlab chiqarish kuchlari va ish joyini xorijga faol ko'chayotganidan dalolat beradi. Koreya investitsiya jalb qilishga kuchli ehtiyoj sezmoqda.

Koreya kompaniyalaining o'tgan yili xorijga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmi 44,5 mlrd dollarga yetdi va ichki bozorga kiritilgan investitsiyalar esa 13,7mlrd dollarni tashkil etdi.

Mahalliy kompaniyalar xorijga ishlab chiqarish ko'chirishdi va qurishdi. Shuningdek ular hom ashyo qazib olish va xorijda sotuv tarmoqlarini kengaytirish bilan faol shug'ullanishdi. Xorijiy investitsiyalarni rekord darajasi kompaniyalarga xorijga sotuvni ko'paytirish, o'zining mahsulotini yuqori texnologiyaligini saqlash, shuningdek mamlakatga energiya va boshqa resurslar zahirasini stabil ta'minlash imkonini beradi.

### **III BOB. Koreya va O`zbekiston iqtisodiy aloqalri rivojlanishi yo`nalishlari**

#### **3.1 Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi**

Bugungi kunda, tashqi iqtisodiy aloqalarni tahlil qilishda tabiiy omillar bilan bir qatorda investitsion muhit, ishchi kuchining qiymati, ichki va jahon bozori narxlari indeksleri nisbatining dinamikalari hamda savdo aylanmalarining tarkibi va miqdorini belgilab beruvchi qator boshqa omillar ham hisobga olinadi. O`zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarda va jahon mehnat taqsimotida ishtiroki tabiiy-iqtisodiy, transport-geografik, madaniy-tarixiy omillar va imkoniyatlar bilan belgilanadi. O`zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli va o`rnini aynan ushbu nuqtai nazarlardan ko`rib chiqish lozim.

Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatleri taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug`diradigan muammolarni hal etish zarur bo`lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo`llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o`zini to`la oqladi.


Shu o`rinda O`zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta`minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta`kidlash joiz.

Mamlakatimizda esa birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to`g`risida"gi qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 13 trillion 360 milliard so`mdan oshadi. Bu aholi va xo`jalik yurituvchi sub`yektlarning jalb qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko`p demakdir.

Yana bir masala — tashqi qarz va uni uzish muammolari bilan bog`liq.

O`zbekiston o`zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekuliyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo`yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

2007—2008 yillar davomida o‘zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko‘proq oshdi.



### 3.1.1-rasm. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining O‘zbekistonga ta‘siri<sup>1</sup>.

2009 yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investitsiyalarni hisobga olganda, kapital qo‘yilmalarning umumiy hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining kamida 25 foizini tashkil etadi.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste‘mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o‘shishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatmaydi, bizni chetlab o‘tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak.

O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish — 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi — 10,2 foiz, savdo sohasi — 7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitsitga erishildi.

2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSH dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi.

2009 yilda o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida — va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham — 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflyatsiyaning o'sish ko'rsatkichini 7—9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

Tashqi savdo munosabatlari geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarmoqda.

O'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning qariyb 54 foizini korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi. Bu mamlakatimizda soliq yukini kamaytirmoqda va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning investitsiya faolligini rag'batlantirmoqda.

Iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o'ynaydigan loyihalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda. Yaqin istiqbolda ushbu Fond aktivlarini 5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda. O'tgan ikki yil mobaynida o'nlab yirik sanoat va infratuzilma inshootlarini moliyalashtirish va hamkorlikda moliyalashtirish uchun Fond tomonidan 550 million AQSH dollaridan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

Kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi 2008 yili salkam 22 foizga ko'paydi. Bu sanoat tarmog'idagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2007 yildagi 45,5 foizdan 2008 yilda 48,2 foizga ko'tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 foizdan ko'prog'i shu sohada mehnat qilmoqda.

2009 yilda respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 21209,6 mln. AQSh dollariga yetdi, bu 2008 yil bilan solishtirilganda 100,1 foizni tashkil qildi (2008 yilda 2007 yilga nisbatan 34,8 foiz). 2009 yilda mahsulot eksport qilish hajmi 11771,3 mln. dollarni (tashqi savdo aylanmasidagi ulush 2008 yildagi 54,2 foiz o'rniga 55,5 foizni), import hajmi – 9438,3 mln. dollarni tashkil qildi. Bunda savdo balansining hajmi 2005 yildagi 1317,5 mln. dollardan 2009 yilda 2333,0 mln. dollargacha o'sdi.

2009 yilda mahsulot eksport qilish tarkibida energiya manbalari va neft mahsulotlarining ulushi 2008 yildagi 24,7 foiz o'rniga 34,2 foizni tashkil qildi, ushbu davrda paxta tolasining ulushi 9,3 foizdan 8,6 foizgacha, mashinalar va uskunalar ulushi tegishlicha 7,6 foizdan 2,9 foizgacha, qora va rangli metallar ulushi 7,0 foizdan 5,0 foizgacha pasaydi.

Mahsulotni import qilishda mashinalar va uskunalar ulushi 2008 yildagi 52,4 foiz o'rniga 2009 yilda 56,5 foizni, oziq-ovqat tovarlarining ulushi 8,3 foiz o'rniga 9,0 foizni tashkil qildi, o'z navbatida, kimyo mahsulotlarining ulushi 11,6 foizdan 11,1 foizgacha, energiya manbalari va neft mahsulotlarining ulushi 4,6 foizdan 3,5 foizgacha, qora va rangli metallar ulushi 7,7 foizdan 6,3 foizgacha pasaydi.

2009 yilda tashqi savdo aylanmasining 37,7 foizi MDH mamlakatlarning ulushiga to'g'ri keldi, bu 2008 yil bilan solishtirilganda 3,2 punktga kamdir. Tashqi savdo aylanmasi hajmining pasayishiga eksport hajmining qisqarishi asosiy sabab bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich 2008 yildagi 3926,6 mln. AQSh dollaridan 2009 yilda 3921,3 mln. AQSh dollarigacha kamaydi. Bunda xorijiy mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2008 yildagi 12537,8 mln. AQSh dollaridan 2009 yilda 13203,4 mln. AQSh dollarigacha oshdi. Tahlil etilayotgan davrda

xorijiy mamlakatlardan mahsulotni import qilish hajmi sezilarli darajada oshdi, bu iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik qayta jihozlash dasturining amalga oshirilishi, O'zbekistonning jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi va ishlab chiqarish raqobatbardoshligining o'sishi bilan bog'liq

Bugun Toshkent, Navoiy va Tollimarjondagi uchta issiqlik elektr stansiyasida mavjud bo'lgan tejamkorligi past gaz qurilmalari o'rniga zamonaviy bug'-gaz qurilmalarini barpo etish loyihalari ustida ish olib borilmoqda. Albatta, bu loyihalarni amalga oshirish uchun kattagina investitsiya kerak bo'ladi.

Lekin issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda energiya manbalaridan foydalanish hajmini jahon standartlari darajasida qisqartirishga erishadigan bo'lsak, bundan keladigan samara sarf qilingan xarajatlarni har jihatdan to'la qoplaydi. Shuning uchun ham ushbu loyihalar ijrosini jadallashtirish ustida qattiq ishlash zarur.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Imtiyozli kredit jamg'armasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi.

2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lov stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytirildi, moliyaviy, maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan 3 yil muddatga ozod etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar, nodavlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni oladigan dividendlarining investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo'naltiriladigan qismi 5 yil muddatga soliqdan ozod etildi. Shuningdek, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2012 yilda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni tekshirishlar sonini kamida yana 30 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Официальный сайт Министерство внешних экономических связей, инвестиций и торговли Рес. Уз.

Ayniqsa, xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlash joiz.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish zarur.

Bu boradagi eng asosiy vazifa vaziyatga tadbirkor nuqtai nazaridan qarash, ya'ni unga o'z ishini rivojlantirish uchun nima to'sqinlik qilayotgani va davlat tomonidan qanday yordam kerakligini aniqlash lozim. Xususiyl sektorga qishloq joylarda ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ham alohida ahamiyat berish kerak.

### **3.2. Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**

Rasmiyl Seul O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 30 dekabrda tan olgan. 1992 yil 29 yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Ushbu davr mobaynida ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida ko'plab oliyl darajadagi uchrashuvlar o'tkazildi. 2009 yil may oyida O'zbekistonga va 2010 yil fevralda Korea Respublikasiga amalga oshirilgan o'zaro davlat tashriflari tomonlarning kelajakda strategik hamkorlik munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan, avvalgi sammitlarda imzolangan bitim va kelishuvlarning amalga oshirilishini mustahkamladi.

1995 yilda Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasida "Koreya-O'zbekiston" do'stlik Assosiatlsiyasi tuzildi. 2005 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik Palatasida Koreya bilan hamkorlik bo'yicha maxsus guruh ta'sis etildi. 2008 yil avgustda Koreya Respublikasi parlament delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi, va 2008 yil noyabrida esa O'zbekiston ayol deputatlarining Koreyaga tashrifi amalga oshirildi.

1995 yildan buyon davlatlar tashqi ishlar vazirliklari o`rtasida doimiy ravishda siyosiy muzokaralar o`tkazilib kelinmoqda va ularning so`ngisi sakkizinchi davrasi 2010 yil noyabrda Seulda bo`lib o`tdi.

1992 yilgi Savdo bitimiga asosan hamkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay savdo rejimi o`rnatildi<sup>1</sup>. Seul OTMdagi savdo sheriklari o`rtasida eng yuqori joyni egallaydi. Savdo aloqalari borasida O`zbekiston bilan Janubiy Koreya o`rtasida 1992 yildan boshlab eng ko`p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. 2008 yilda o`zaro tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. 2009 yilda esa bu ko`rsatkich 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. Yurtimizda 351 O`zbekiston-Janubiy Koreya qo`shma korxonasi faoliyat ko`rsatmoqda. Ushbu mamlakatning 91 firma va kompaniyasi O`zbekistonda o`z vakolatxonasini ochgan.

Respublika davlat statistika qo`mitasining ma'lumotlariga asosan 2010 yilda davlatlar o`rtasidagi savdo aylanmasi 31,5% ga oshib, 1,614 mlrd.doll. ni tashkil etdi, bundan eksport 158,2 mln.doll., import esa 1,456 mlrd.doll. ni tashkil qildi.

### **2003-2010-yillardagi O`zbekiston va Koreya Respublikasi savdo aylanmasi (mln.dollar)<sup>2</sup>**

3.2.1-jadval

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2010
<b>Savdo aylanmasi</b>	289,9	408,7	564,5	613,0	583,9	1056	1614
<b>Eksport</b>	55,1	56,8	51,5	44,8	69,8	91,5	158,2
<b>Import</b>	234,8	351,9	513,0	568,1	514,1	965,1	1456
<b>Saldo</b>	-179,7	-295,1	-461,5	-523,3	-444,3	-873,6	-1297,8

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lumoti.

<sup>2</sup> Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari

Shuningdek, Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bakning 2009 yil may oyida O`zbekistonga rasmiy tashrifi davomida, O`zbekiston bilan “Yangi ipak Yo`li” loyahasini taklif etdi. Bu loyihani Koreyaning ilg`or informatsion texnologiyalari bilan O`zbekistonning keng logistik va temir yo`l tarmoqlarini ishlatgan holda amalga oshirish orqali, ikki mamlakat yurtboshlari ikki tomonlama foydali hamkorlikni yanada kengaytirib, uzoq muddatiligini ta'minlash maqsadini tasdiqlashdi. Sammitlar borasida tomonlar o`rtasida 37 kelishuvlar imzolandi. Shu bilan birga O`zbekiston TIF Milliy Banki bilan Koreya Eksim Banki o`rtasida xorijiy investorlar loyihalarini moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 100mln. AQSh doll. bo`lgan kredit liniyasini taqdim etish to`g`risidada Memorandum imzolandi.

Koreya O`zbekistonda ta'lim, avtomobilsozlik, tekstil sanoati, informatsion texnologiyalar, infratuzilma, qurilish, neft va gaz kabi soxalarda yangi loyihalarni amalga oshirishga e'tibor qaratmoqda.

Shu qatorda, 11 - may kuni Do`rmon qarorgohida Koreya Prezidenti bilan bo`lib o`tgan rasmiy uchrashuv doirasida, Islom Karimov va Li Men Bak o`rtasida qo`shma bayonot imzolandi. Unga asosan, diplomatik pasport egalari bo`lgan fuqarolar uchun vizasiz kirish to`g`risida, O`zbekiston Respublikasi va Koreya Eksim banki o`rtasida “ V.Voxidov nomidagi kardiojarrohlik markazini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta'minlab bo`lish” uchun 10 million AQSh dollari qiymatida iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik fondi tomonidan imtiyozli kredit ajratish to`g`risida bitimlar, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan sanoat komplekslari Koreya korporatsiyasi o`rtasida “Navoiy” erkin-iqtisodiy hududiga koreys investitsiyalarini jalb qilish to`g`risidagi Memorandum, “O`zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi bilan Koreya milliy neft kompaniyasi o`rtasida Farg`ona viloyatida investitsion blok ishlab chiqish to`g`risidada Memorandum imzolandi.

2010 yilda Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy hududda 11ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. O`zbekiston hukumatidagi manbaga

asoslanib, Regnum axborot agentligi tarqatgan xabarga ko`ra, ushbu loyihalar uchun 31 million AQSh dollari hajmida xorijiy sarmoya kiritildi.

Mamlakatlarimiz o`rtasida iqtisodiy hamkorlik izchil rivojlanmoqda. O`zbekiston va Janubiy Koreya neft-gaz, konchilik, mashinasozlik, avtomobilsozlik, to`qimachilik, logistika, kimyo sanoati, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va qator boshqa sohalarda keng ko`lamli qo`shma loyihalarni amalga oshirmoqda. Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo`yicha O`zbekiston-Koreya qo`shma qo`mitasi muntazam yig`ilishlar o`tkazib, aloqalarning yangi qirralarini ochish, mazmunini boyitish, savdo va sarmoya hajmini oshirish masalalarini ko`rib chiqadi. Energetika va tabiiy resurslar bo`yicha idoralararo qo`mita tuzilgan.

Janubiy Koreya O`zbekistonning eng yirik sarmoyaviy sheriklaridan biridir. Uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi 2 milliard AQSH dollaridan oshdi. Ayniqsa, neft-gaz, konchilik, neft kimyosi, logistika, qurilish sohasida yirik loyihalar bor. Navoiy shahridagi xalqaro aeroport negizida barpo etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zona bunga yorqin misoldir.

Ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo`nalishlaridan biri "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi. Erkin industrial-iqtisodiy zona va yuk tashish bo`yicha dunyoda yetakchi kompaniyalardan biri – "Korean Air" tomonidan boshqarilayotgan Navoiy shahar aeroportidagi logistika markazi imkoniyatlarining birlashtirilishi yuqori daromadli mahsulotlar ishlab chiqarilishining rivojlanishiga hamda aviatsiya, avtomobil va temir yo`ldan foydalangan holda amalga oshiriladigan yuk tashishning multimodal tizimi orqali tayyor mahsulotni dunyo bozoriga tez yetkazib berilishiga alohida imkoniyat yaratadi.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida chet el investorlari hamkorligida, shu jumladan koreya investorlari bilan birgalikda ko`plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu zonadagi qit`alararo intermodal logistika markazi MDHda yagona bo`lib, u yerda yuklar tezkorlik bilan tushiriladi va ortiladi, taqsimlanadi, maxsus omborlarga joylashtiriladi. Osiyodan Yevropaga va

Yevropadan Osiyoga joʻnatiladigan yuklar global yuk tashish tarmogʻining muhim boʻgʻiniga aylanadigan ana shu markazdan oʻtadi.

Taʼkidlash joizki, xorijda mazkur erkin industrial-iqtisodiy zonaga qiziqish kuchayib bormoqda. 2009 yil mart oyida Seulda Oʻzbekistonda sarmoyaviy hamkorlik sohasidagi yangi imkoniyatlarga bagʻishlangan anjuman boʻlib oʻtdi. Koreyalik ishbilarmonlar erkin industrial-iqtisodiy zonadagi qulaylik va imtiyozlar bilan atroflicha tanishtirildi. Natijada umumiy qiymati 500 million AQSH dollaridan oshadigan 35 sarmoyaviy loyiha boʻyicha kelishuvlarga erishildi. Bu mablagʻning asosiy qismi energetika sohasini rivojlantirishga sarflanishi nazarda tutilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy hududda ishlab chiqarish korxonalarini qurish uchun qiymati 187 million dollar boʻlgan 19 ta kelishuv imzolangan. Yangi korxonalar toʻliq ishga tushganda yiliga 375,5 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarishi va uning qariyb yarmi eksport qilinishi moʻljallangan.

2010 yil ikkinchi yarmida kimyo sanoati, neft kimyo, elektrotexnika, mashinasozlik, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish boʻyicha yana 16 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilshgan<sup>1</sup>.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida ishga tushirilgan korxonalar tomonidan joriy yilning 9 oyida umumiy qiymati 23,3 milliard soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu shundan dalolat beradiki, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirish ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yoʻnalishlaridandir. Oʻzbekiston aynan Janubiy Koreya bilan hamkorlikda ishlab chiqarishning murakkab, eng ilgʻor texnologiyalar talab qiladigan, tayyor mahsuloti yuksak darajadagi qoʻshimcha qiymatga ega turini oʻzlashtirib, dunyodagi sanoqli avtomobilsoz davlatlar qatoridan oʻrin oldi.

“Koreya gaz korporatsiyasi” (“KOGAZ”) bilan hamkorlik nafaqat gaz konlarida geologiya-razvedka ishlarini olib borish va konlarni oʻzlashtirish, balki yiliga 445 ming tonna polietilen va polipropilen ishlab chiqarishni ham qamrab olgan. Yaʼni, gaz xomashyosini qayta ishlab, yuqori qoʻshimcha qiymatli mahsulot

---

<sup>1</sup> <http://www.mfer.uz>

chiqariladi. Bu loyiha doirasida 3,12 milliard AQSH dollari miqdorida Janubiy Koreya sarmoyasini jalb qilish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi hukumatlari o‘rtasida 2008 yil 12 mayda imzolangan 2008-2011 yillarda Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg‘armasi (EDCF) tomonidan imtiyozli kreditlarlarini taqdim etish to‘g‘risidagi hadli bitimga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi bitim, muqobil energiya manbalari va energiya tejaydigan texnologiyalarini rivojlantirish sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim, Surg‘il koni negizida Ustyurt gaz-kimyoy majmuini qurish va konni o‘zlashtirish loyihasini amalga oshirish bo‘yicha sarmoyaviy bitim imzolandi.

Umuman, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashrifi doirasida ikki mamlakatning turli vazirlik va idoralari o‘rtasida jami 16 hujjat imzolandi. Ularda infratuzilma, tibbiyot, atrof-muhit muhofazasi, o‘simliklar karantini, sayyohlik, qishloq xo‘jaligi va qator boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Toshkentda Seul bog‘ini barpo etish ko‘zda tutilgan.

Poytaxtimizdagi Xalqaro hamkorlik markazida O‘zbekiston va Janubiy Koreya ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida kooperatsion birja bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Koreya Respublikasi Kichik va o‘rta biznes federatsiyasi hamda «Daily Group Plyus» mas’uliyati cheklangan jamiyati hamkorligida tashkil etildi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmini oshirish masalalariga bag‘ishlangan ushbu anjumanda mamlakatimizning iqtisodiyot, savdo, sarmoya, yoqilg‘i-energetika majmui, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va yengil sanoat, farmatsevtika, qurilish, qishloq va suv xo‘jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, geologiya va mineral resurslar, transport va transport kommunikatsiyalari, axborot texnologiyalari, elektrotexnika, logistika, sayyohlik, mebelsozlik, ko‘nchilik va matbaachilik sohalari uchun mas’ul vazirlik va idoralari, kompaniya va konsernlari vakillari ishtirok etdi.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston va Janubiy Koreya xalqaro siyosat maydonida bir-birining

tashabbuslarini yoqlab, bir-birini qo'llab-quvvatlab keladi. O'zbekiston BMT organlariga, jumladan, Bosh kotib lavozimiga Koreya Respublikasining nomzodlarini yoqlagan. Janubiy Koreya Osiyoda hamkorlik bo'yicha muloqot va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda O'zbekistonni, "Sky Team" safidan joy olishda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasini qo'llab-quvvatlagan. Umuman, siyosiy hamkorlik – ikki mamlakat rahbariyatining doimiy diqqat-e'tiborida. Tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida muntazam maslahatlashuvlar o'tkazish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Koreya Respublikasi - O'zbekistonning yetakchi investorlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga Koreya Respublikasining to'g'ridan – to'g'ri investisiyalarining umumiy hajmi \$5 mlrd.dan oshdi, xususan \$2 mlrd.dan ortig'i o'zlashtirildi. Koreya eksport-import bankining (Eksimbank) Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik fondi liniyalari bo'yicha O'zbekistonda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga ajratilgan imtiyozli kreditlarning umumiy hajmi \$103,13 mln.ni tashkil etadi<sup>1</sup>. 1995 yildan beri O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan Xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreya Agentligi (KOICA) orqali Koreya Respublikasi Hukumatining texnik yordami doirasida hamkorlik faol rivojlanmoqda. Bugungi kunda KOICA dasturi liniyalari bo'yicha Koreya Respublikasida O'zbekiston vazirlik va idoralarining 1240 nafardan ortiq vakillari malaka oshirib qaytdilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda 360 ta o'zbek-koreys qo'shma korxonalar, ular ichidan 59 tasi 100% Koreya kapitalidagi korxonalar faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston bozorida faoliyat yurituvchi koreys kompaniyalari orasida Koreya milliy neft korporatsiyasi (KNOK), Koreya Gaz Korporatsiyasi (KoGaz), "DAEWOO International", "Korean Air", "Shindong enerkom", "Xaynteks" va boshqa yirik kompaniyalar ham bor. O'zbekiston Respublikasi TIAISV da eksport-import operatsiyalarini o'tkazish, transport xizmatlarini ko'rsatish, tekstil sanoati,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

elektronika servis xizmati va boshqa sohalarni o'z faoliyati doirasiga olgan Janubiy Koreya kompaniyalarining 84 ta vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tkazilgan.

O'zbekiston va Janubiy Koreyaning savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy-texnikaviy hamkorligi ikkitomonlama munosabatlarni mustahkamlashda muhim omil sanaladi va ulkan istiqbollarga egadir. Tomonlar tog'-kon sanoati, neft va gaz, neft va kimyo, qurilish, avtomobilsozlik, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, shuningdek, yuqori texnologiyalar sohasida sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdordirlar.

O'zbekistondan Janubiy Koreyaga transport, sayyohlik va kommunikatsiya xizmatlari, paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va asbob-uskunalar eksport qilinadi. Koreya Respublikasidan esa kimyoviy mahsulotlar va plastmassa, qora metallar, transport, konsultativ va kommunikatsiya xizmatlari, oziq-ovqat, neft mahsulotlari, mashina va asbob-uskunalar import sifatida olinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi bu – mavjud sanoatni yangilash hamda modernizatsiya qilish maqsadida mamlakatimizga yuqori investitsiya texnologiyalarining jalb etilishi bilan bog'liq istiqbolli loyihalar sanaladi.

Janubiy Koreya Eksimbankining Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik jamg'armasi (EDCF) tomonidan imtiyozli kreditlash tizimi bo'yicha olib borilayotgan o'zaro munosabatlar ham izchil rivojlanmoqda. Bu borada ichimlik suvi bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va geoaxborot tizimi sohasiga oid loyihalarni amalga oshirish maqsadida EDCF jamg'armasining qariyb 155 million AQSh dollariga teng bo'lgan yangi imtiyozli kreditini jalb etish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Biroq, kooperatsion birjada ta'kidlanganidek, bu ko'rsatkichlar O'zbekiston va Janubiy Koreyaning salohiyat va imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarga oid raqamlarni bir necha hissa oshirish mumkin. Buning uchun o'zaro ayirbosh qilinayotgan mahsulotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish, uni yangi tovarlar va xizmatlar bilan boyitish, qo'shma korxonalar sonini yanada ko'paytirish lozim.

## XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishni yozish davrida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy aloqalardagi ustunlikka qandaydir bitta yoki hatto ikkita omilning emas, balki ularning butun majmui ustunlik qilishi evaziga erishiladi. Bunday omillar ichida, masalan, fan-texnika taraqqiyoti muhim hisoblanadi, chunki eng yangi ilmiy kashfiyotga asoslangan tovar uning yangilik darajasi va boshqa xususiyatlariga qarab uzoq muddatli yoki qisqa muddatli raqobat jihatdan ustunlikni ta'minlashi mumkin. Shu munosabat bilan davlatning ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, shuningdek oliy, o`rta va kasbiy ta'limni mablag` bilan ta'minlashi juda muhim.

2. Mamlakatlarning ochiq, erkin savdo siyosati olib borishining bir qator afzalliklari mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

u qiyosiy ustunliklarga muvofiqlashishni talab etadi. Ochiq savdo tartibini qo`llovchi mamlakatlar qiyosiy ustunlikka ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga harakat qiladilar;

u bandlik ortishiga olib keladi. Xeksher-Olin nazariyasiga ko`ra, mamlakat qiyosiy ustunlikka ega bo`lgan sanoat tarmoqlari mehnat sig`imi yuqori bo`lgan tarmoqlardir. Shuning uchun eksportning kengayishi bandlik darajasi ortishiga olib keladi;

u daromadlar taqsimotida tengsizlik qisqarishiga olib keladi, mehnatga bo`lgan talabning ortishi ish haqi ortishiga olib keladi;

import o`rnini bosish siyosatida menejerlar siyosatshunos va mansabdorlar bilan litsenziyalarga, imtiyozlarga ega bo`lish maqsadida kelishishga intiladilar, natijada korrupsiya darajasi ortadi. Eksportga yo`naltirilgan siyosatda bunday cheklovlarning bo`lmasligi menejerlarni o`z vaqtini ishlab chiqarish samaradorligiga qatarishi uchun imkon yaratadi;

ko`lamdan tejash samarasi yuz beradi, ya'ni ichki bozor haddan tor sharoitda mahsulotni tashqi bozorda sotish yangi imkoniyatlar beradi.

Shu bilan birga eksportga yo`naltirilganlik, erkin savdo siyosati ma'lum darajada kamchiliklarga ham ega, jumladan:

Sanoat mahsulotlarini chetdan sotib olishga ko`pchilik rivojlangan mamlakatlar ichki ishlab chiqaruvchilar uchun xafv sifatida qaraladi. Ichki bozorni himoyalash uchun ular rivojlanayotgan mamlakatlar eksport tovarlariga savdo cheklashlarini joriy etadilar. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti kengayishini cheklaydi.

Haddan tashqari ochiq savdo siyosati valyuta munosabatlari va kapital harakatini nazorat qilishni susaytiradi, mamlakat chayqov ta'siriga beriluvchan bo`lib qolishi mumkin. Buni biz 1997-1998 yillarda Janubi-Sharqiy Osiyoda yuz bergan holatda ko`rishimiz mumkin.

Sanoat mahsulotlari va uskunalarni eksport qilish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta tavakkalichilik darajasiga ega. Bu holda faqat rivojlanayotgan mamlakatlar aro savdo yaxshi natija beradi.

Ko`pchilik mamlakatlarga kapital va mehnat bozorining moslashuvchan emasligi zarar keltiradi.

3. Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining yakuniy maqsadi - iqtisodiy o`shishni tezlashtirish va shuni asosida aholining turmushi sifatini va darajasini o`shishini ta'minlashdir. Chunki har qanday tashqi iqtisodiy siyosat o`z navbatida iqtisodiy rivojlanishga o`z ta'sirini o`tkazadi. Iqtisodiy barqaror o`svuvchi tizim deb (bunda mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko`zda tutiladi) turli xil o`zgarishlar, tashqi va ichki omillarga moslashuvchan va ularni qabul qila olish qobiliyatiga ega bo`gan tizimni hisoblash mumkin. Ochiq (bozor) va yopiq (markazlashgan) tizimlarning iqtisodiy barqarorlik salohiyati ularning samardorligi va strategik istiqbolga egaligi masalasida muhim ahamiyatga egadir. Agar tizim amal qilishi asosini majburlash va zo`ravonlik tashkil etsa, bunday tizim o`zgarmas va yangiliklarga moslashuvchan bo`la olmaydi, natijada bu barqarorlikka hamda milliy iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlikning bo`shashishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida ko`rsatilganidek, hozirgi vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

- aksariyat mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida yetakchi tendentsiyaga aylanib borayotgan ochiq iqtisodiyotga o'tish. U ayniqsa retsessiya va iqtisodiy pasayish, talabning pasayishi va xalqaro savdo hajmining qisqarishi sharoitida juda muhim. «Erkin savdo» yoki «proteksionizm» muammosi hali o'z yechimini topgani yo'q va o'zining avvalgi keskinligini yo'qotmagan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida proteksionizmdan "ochiq" iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg'unlikda foydalanish zarur;

- jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga muayyan tuzatishlarni kiritayotgan xalqaro iqtisodiy institutlar rolining yanada ortib borishi, erkin savdo tamoyillarini tasdiqlagan holda, aksariyat mamlakatlar tashqi iqtisodiy siyosatiga katta ta'sir ko'rsatadi;

- iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish sharoitida global omillar, texnologik modernizatsiyaning ta'siri, sarmoyalar, ishchi kuchi, savdo, texnologik almashinuv va valyuta-kredit munosabatlarining xalqaro harakatlanishidagi o'zgarishlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda.

4. Koreya Respublikasi eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishda milliy tovarlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirmay muvaffaqiyatga erisha olmasligini tushunib etdi va natijada katta miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga kirishdi. Eksportga ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash tizimini isloh qildi. Bunda sanoatning ayrim ustuvor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashdan Yagona sanoatni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Mamlakatda ochiq eshiklar siyosati amalga oshirila boshladi. Natijada hozirgi davda Koreya Respublikasi qudratli eksportchi mamlakatlardan biriga aylandi. U dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan faol savdo olib boradi.

Oxirgi 30 yil ichida Koreya Respublikasi o'zining eksporti o'sish sur'ati bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Koreya eksportining o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 22,4 % ni tashkil qildi. Shu bilan birga 2011 yilga kelib, Koreya eksporti jahon eksporti hajmining 3% ini tashkil qilib, 555,214 mlrd dollarni tashkil qildi. Umumiy tashqi savdosi esa o'tgan yilga nisbatan 21,1 % ga o'sib, 1079,627 mlrd dollarni tashkil

qildi. 2011 yilda Koreya Respublikasi eksporti-19 % ga , importi esa 23,3 % ga o'sdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi mamlakatlar bilan Koreya aktiv ba'zilari bilan passiv savdo balansiga ega. Jumladan, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Germaniya, BAA, Qatar, Indoneziya bilan passiv savdo balansiga, Xitoy, AQSh, Gonkong, Singapur, Tayvan mamlakatlari bilan aktiv savdo balansiga ega. Mamlakatning umumiy savdo balansi 2008 yilda boshlab passiv xususiyatga ega bo'ldi, bunga yuz bergan jahon moliyaviy inqirozini sabab qilib ko'rsatish mumkin. 2009 yildan to hozirgacha u yana musbat ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Koreya Respublikasi 2010-yilda dunyoda savdo aylanmasi hajmi bo'yicha 9-o'rinni, shu jumladan, eksport bo'yicha 7- va import bo'yicha 9-o'rinni egalladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda mamlakat eksportning asosiy qismini yarim o'tkazgichlar, yengil avtomobillar, kompyuter texnikasi, mobil telefon vositalari, dengiz kemalari, elektron asboblari, kiyim kechaklar tashkil etadi. Bu mahsulotlar ko'p qismi tashqi bozor uchun ishlab chiqiladi. Ayniqsa, Koreyada ishlab chiqarilgan hamma avtomobilning deyarli yarmi , shuningdek deyarli barcha yirik kemalar xorijga chiqariladi. Mamlakat o'z eksportini yanada diversifikatsiya qilish maqsadida BRIK mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirmoqda.

5. Mamlakat kelajagi uchun sarmoyalarning ahamiyati kattaligini inobatga olgan holda, Koreya Respublikasi sarmoyadorlar uchun barcha qulayliklarni yaratishga imkon qadar harakat qilmoqda. Hukumat tomonidan 2002 yil aprel oyida, biznesni yanada jalb etish va Janubiy Koreya valyuta bozorini Sharqiy Osiyo moliya markaziga aylantirish maqsadida, o'rta muddatli va uzoq muddatli chet el valyutasi bozorini rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi. 2008 yilda Koreya Respublikasi hukumati mamlakatga horijiy investitsiya jalb qilish dasturini ishlab chiqishni davom ettirdi. Xorijiy fuqarolar uchun arendaga mo'ljallangan uy-joy qurilishi, xorijiy va qo'shma kapitalli kompaniyalar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari, shuningdek ularning boshlang'ich faoliyati davomida soliqdan ozod qilish ko'zda tutildi.

2009 yilda koreys investitsiyalarining eng yirik qabul qiluvchilari AQSH (4,94 mlrd. doll.), Xitoy (3,83 mlrd. doll.), Gongkong (2,49 mlrd. doll.), V'etnam (1,35 mlrd. doll.), Gollandiya (649,3 mln. doll.), Avstraliya (579,2 mln. doll.), Indoneziya (535,7 mln. doll.), Singapur (522,6 mln. doll.) bo'lgan.

6. Koreya Respublikasi O'zbekistonning yirik savdo hamkorlaridan biridir. Mamlakatlararo savdo hamkorligi 1992 yilda boshlangan. Yurtimizda 351 O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatning 91 firma va kompaniyasi O'zbekistonda o'z vakolatxonasini ochgan.

2010 yilda davlatlar o'rtasidagi savdo aylanmasi 31,5% ga oshib, 1,614 mlrd.doll. ni tashkil etdi, bundan eksport 158,2 mln.doll., import esa 1,456 mlrd.doll. ni tashkil qildi.

Janubiy Koreya O'zbekistonning eng yirik sarmoyaviy sheriklaridan biridir. Uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi 2 milliard AQSH dollaridan oshdi. Ayniqsa, neft-gaz, konchilik, neft kimyosi, logistika, qurilish sohalarida yirik loyihalar bor. Navoiy shahridagi xalqaro aeroport negizida barpo etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zona bunga yorqin misoldir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston aynan Janubiy Koreya bilan hamkorlikda ishlab chiqarishning murakkab, eng ilg'or texnologiyalar talab qiladigan, tayyor mahsuloti yuksak darajadagi qo'shimcha qiymatga ega turini o'zlashtirib, dunyodagi sanoqli avtomobilsoz davlatlar qatoridan o'rin oldi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar:**

1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.

1.2.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Iqtisodiyot huquq dunyosi, 2010.

1.3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil, 28 iyuldagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni.

1.4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo‘shimcha choralar to‘g‘risidagi Qarori // Halq so‘zi gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

1.5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010, 5-son.

#### **2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

2.1.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so‘zi”. – №21(4936), 30 yanvar 2010.

2.2.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi // Xalq so‘zi. – №16(5183), 22 yanvar 2011.

- 2.3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 54 b.
- 2.4. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O‘zbekiston, 2009. – 24 b.
- 2.5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
- 2.6. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – №19 (4934), 28 yanvar 2010.
- 2.7. I.A. Karimov O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. “O‘zbekiston 2011”

### **3. Maxsus adabiyotlar.**

- 3.1. Hamedov I.A., Alimov A.M. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “adabiyot jamg‘armasi” nashr., 2001.- 328b.
- 3.2. Страны и регионы мира: экономико-политический справочник /Под ред. А.С. Булатова. – М.: Проспект, 2010. – 704 с.
- 3.3. Мировая экономика и международный бизнес. Экспресс-курс: учеб. /Под общ. ред. В.В. Полякова и Р.К. Щенина. – М.: КНОРУС, 2008. – 288 с.
- 3.4. Мелибаева Г. А. Чон Дэ Ван, Муминов Н.Г. “Внешнеэкономические связи Република Корея” учебное пособие Ташкент УМЕД 2011 год.
- 3.5. Международные экономические отношения. Учебник под ред. Б.М. Смитиенко. М.: Юр книга, 2004.
- 3.6. Данильцев А.В. Международная торговля. Инструменты регулирования. Учебно-практическое пособие. М.: Деловая литература, 2004.
- 3.7. “Jahon iqtisodiyoti” R.N. Shodiev, E.R. Mahmudov, Toshkent 2005
- 3.8. Жонг Вон Ли «Успехи и неудачи экономики Кореи и её перспективы», 2006 год

- 3.9. Рикс, Дэвид А. Просчеты в международном бизнесе. М.: Издательский дом «Вильямс», 2004.
- 3.10. Улин Б. Межрегиональная и международная торговля. М.: Дело, 2004.
- 3.11. Гим Ан Хо. Понятие экономика в Корее. Сеул, 2002 (koreys tilida).
- 3.12. В.К. Ломакин "Мировая экономика", Финансы, М, 1998
- 3.13. Ве Ёен Хо. Данный момент и задачи привлечения иностранных инвестиций. Сеул, 2006 (koreys tilida).
- 3.14. Ribalkin V.E., Щербанin Yu.A., Boldin L.V. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix spetsialnostey – М.: YUNITI – DANA, 2000 – 503s.
- 3.15. Дак Ву Нам “Опыт экономического развития Республики Корея в условиях рыночной системы”, 1993.
- 3.16. С.С.Гулямов., Ю.Т.Дадабоев «Международный бизнес». Т.: Янги аср авлоди, 2001
- 2.17. Sergeyev P.V. Mirovye khozyaystvo i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya na sovremennom etape: Uchebnoye posobie po kursu “Mirovaya ekonomika” – М.: Yuniti, 1998 – 176s.

#### **4. Statistik to'plamlar**

- 4.1. Евгений Штефан ВВП Южной Кореи превысил один триллион долларов. 13/01/2011 12:44:00 <http://vestnik.kr/econo/3967.html>
- 4.2. OECD Economic surveys: Korea, June 2010
- 4.3. Republic of Korea Economic Bulletin, Vol. 31, No.1, January 2012
- 4.4. Regional Income in 2010 (Preliminary), Economic Bulletin of Republic of Korea
- 4.5. Social Indicators in 2011, Economic Bulletin of Republic of Korea
- 4.6. The Bank of Korea, Seoul, Korea, Choongsoo Kim, Governor, The Bank of Korea, The Korean Economy, April 2012
- 4.7. Office of president The Republic of Korea February 2005. Overcoming a national crisis, the Republic of Korea rises up again
- 4.8. Navoiy viloyati statistika boshqarmasining 2006-2009 yillardagi ma'lumotlari

## 5. Gazeta va Jurnallardagi ilmiy maqolalar

- 5.1. Проблемы Дальнего Востока Жур. РАН Института Востоковедения.
- 5.2. ж. Korea now. Июнь 2004.
- 5.3. ж. Korea today. Май 2005.
- 5.4. ж. Korea investment. Август 2003.
- 5.5. ж. Экономическое обозрение. 2002.
- 5.6. ж. Рынок деньги и кредит. 1-12, 2003.
- 5.7. ж. Экономический вестник Узбекистана. 2004.
- 5.8. Лю Сун Ан. Политика иностранных инвестиций и план мероприятий // 1996. № 10. С. 83—87 (koreys tilida).

## 6. Internet resurslar

- 6.1. <http://www.seoulkoreaasia.com/trade-business.htm>
- 6.2. [www. Aziatimes.ru/](http://www.Aziatimes.ru/)
- 6.3. [www. finansy.ru/publ/mark/](http://www.finansy.ru/publ/mark/)
- 6.4. [www.Korea.net](http://www.Korea.net)
- 6.5. [http://trade.ec.europa.eu/doclib/docs/2006/september/tradoc\\_113448.pdf](http://trade.ec.europa.eu/doclib/docs/2006/september/tradoc_113448.pdf)
- 6.6. <http://infoman.uz/2012/01/uz-2012-foreign-investment/>
- 6.7. <http://uza.uz/uz/business/19502/>
- 6.8. [http://www.mfer.uz/rus/mejdunarodnoe\\_sotrudnichestvo/sotrudnichestva\\_s\\_zar\\_ubejnimi\\_stranami/atr/koreya/](http://www.mfer.uz/rus/mejdunarodnoe_sotrudnichestvo/sotrudnichestva_s_zar_ubejnimi_stranami/atr/koreya/)
- 6.9. “UzDaily.uz” internet-nashri.
- 6.10. [www.uzinfoinvest.uz](http://www.uzinfoinvest.uz)
- 6.11. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
- 6.12. [www.Uza.uz](http://www.Uza.uz)
- 6.13. [www.olam.uz](http://www.olam.uz)
- 6.14. [http://www.mfer.uz/rus/vneshnyaya\\_torgovlya/informaiya\\_o\\_tovarooborote\\_eksporte\\_i\\_importe\\_respubliki\\_uzbekistan/informaiya\\_o\\_tovarooborote\\_eksporte\\_i\\_importe\\_respubliki\\_uzbekistan\\_za\\_2011g/](http://www.mfer.uz/rus/vneshnyaya_torgovlya/informaiya_o_tovarooborote_eksporte_i_importe_respubliki_uzbekistan/informaiya_o_tovarooborote_eksporte_i_importe_respubliki_uzbekistan_za_2011g/)